

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O.Yusupova

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

(Uslubiy qo‘llanma)

*SamDU o‘quv-uslubiy
kengashi majlisida muhokama
qilinib, nashrga tavsiya etilgan
(2018-yil 11-iyul, 10-bayonnoma).*

Samarqand – 2018

UDK: 494.3

BBK : 81

“Tilshunoslik nazariyasi” fanidan II mutaxassislik va sirtqi bo‘lim talabalari uchun uslubiy tavsiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2018. – 104 b.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada “Tilshunoslik nazariyasi” fanini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan asosiy mavzular ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ish mavzulari ostida berilgan bo‘lib, bu asosiy bilimni mustaqil o‘zlashtirish orqali egallaydigan II mutaxassislik va sirtqi bo‘lim talabalarining tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan.

Oo‘llanmadan filologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari, ushbu fandan dars o‘tuvchi prof-o‘qituvchilar va boshqa qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Tuzuvchi:

filologiya fanlari nomzodi

Orziboni Yusupova

Mas’ul muharrir:

filologiya fanlari doktori,

professor **Suyun Karimov**

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi,

dotsent **Dilbar O‘rinboyeva**

filologiya fanlari nomzodi,

dotsent **Xurshid Xayrullayev**

ISBN 978-9943-5368-0-7

© Samarqand davlat universiteti, 2018

So‘zboshi

“Tilshunoslik nazariyasi” fani barcha tilshunoslik fanlari rivojlanishiga asos bo‘ladigan, ayni paytda ularning rivojlanish yo‘llarini belgilab beradigan universal fandir. “Tilshunoslik nazariyasi” inson tilini ilmiy o‘rganadigan fan bo‘lib, tilning qator nazariy muammolari: predmeti, maqsad va vazifalari, tilning strukturasi, tilning rivojlanishi, tilni o‘rganish metodlari, tilshunoslik g‘oyalari, oqimi, maktablari va yo‘nalishlari xususida bahs yuritadi. Shuning uchun bu fan filologiya ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fanning o‘rganish obyekti birmuncha keng, tilshunoslikning nazariy masalalari tadqiqini o‘z ichiga olgan bo‘lib, fanni yaxshi o‘rganishda asosiy darsliklardan tashqari qo‘shimcha qo‘llanmalarga ehtiyoj seziladi. Ayniqsa, asosiy bilim mustaqil ta’lim negizida o‘zlashtiriladigan ikkinchi mutaxassislik va sirtqi bo‘limda ta’lim olayotgan talabalar tilshunoslik sirlarini o‘rganishda ko‘makchi bo‘ladigan alohida bir uslubiy tavsiyalarga muhtojlik sezadilar. Ushbu uslubiy qo‘llanma ana shu zaruratni to‘ldiradigan ishlardan biridir.

Uslubiy qo‘llanmada ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlari mavzulari berilishidan tashqari, mavzuni mustahkamlash uchun mavzuga doir qo‘shimcha adabiyotlardan fikrlar berilgan. Mavzuni mukammallashtirish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati har bir mavzudan so‘ng ko‘rsatilgan. Savol va topshiriqlar, test savollari ham mavzulashtirilgan bo‘lib, ayni bir mavzu doirasida bilim darajasining kengayishiga sabab bo‘ladi. Mustaqil ish mavzulari fanni mukammal o‘rganish uchun zarur bo‘lgan mavzular doirasini qamrab olgan bo‘lib, bu mavzularning har biriga qisqacha izoh berilgan. Foydalanish mumkin bo‘lgan adabiyotlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu qo‘lanmani yaratishda S.Usmonov, A.Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulov, B.O‘rinboyev, A. Nurmonov, N.Mahmudov, S.Karimov, H.Dadaboyev, B.Yo‘ldoshev,

N.Turniyozov, Sh. Iskandarova, Z.Xolmonova kabi olimlarning yaratgan asarlari, tadqiqotlari, fikr-mulohazalariga tayanildi.

II mutaxassislik va sirtqi bo'lim talabalariga mo'ljallangan ushbu qo'llanmada darsning asosiy mazmuni, bu mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar, mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar, mustaqil ishlarni bajarish tartibi va talablari, oraliq savollari namunalari va yakuniy nazorat test savollaridan namunalar keltirib o'tildi.

FANNING MAVZUVIY REJASI

№	O‘tiladigan mavzu	Soatlar		
		Ma’r	amali	semin
1.	“Tilshunoslik nazariyasi” fani mazmuni, maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi.	2	-	-
2.	Til –ijtimoiy hodisa sifatida. Til va tafakkur. Til va nutq munosabati.	2	-	-
3.	Til va jamiyat	-	2	-
4.	Til va yozuv	-	2	-
5.	Til tizimi va tuzilishi. Til tizimi birliklari. Til sathlari tushunchasi.	2	-	-
6.	Til ramzlar tizimi. Tilning semiotik tabiati	-	-	2
7.	Dunyo tillari tasnifi va tavsifi	-	2	-
8.	Tillarni ilmiy tadqiq etish metodlari	-	-	2
9.	Istiqlol va o‘zbek tilshunoslik taraqqiyotida bo‘lgan o‘zgarishlar. O‘zbek tilshunosligining istiqbol yo‘nalishlari.			2
Jami		6	6	6

1-mavzu: “Tilshunoslik nazariyasi” fani, uning predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. “Tilshunoslik nazariyasi” fani, uning predmeti, maqsad va vazifalari
2. Tilshunoslik fanining tarmoqlari
3. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi
4. Tilshunoslik aspektlari

Tayanch soʻz va iboralar: *til, tilni oʻrganish tarmoqlari, ekstralingvistika (sotsiolingvistika, metalingvistika), intralingvistika, komparativistika (qiyosiy-tarixiy, chogʻishtirma, areal, tipologik) tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, tilshunoslik aspektlari, tilshunoslik nazariyasi.*

1. “Tilshunoslik nazariyasi” fani, uning predmeti, maqsad va vazifalari. “Tilshunoslik nazariyasi” fani murakkab va koʻp qirrali, boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bogʻliq boʻlgan tilni ilmiy va amaliy oʻrganuvchi fandır. Bu fan til haqidagi mustaqil va aniq fan boʻlib, tilning tabiati, ijtimoiy mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigani vazifasi, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini, til va tafakkurning bir-biriga uzviy bogʻliqligini, tillarning oʻzaro munosabatini oʻrganadi. Ayrim tillarni, bir guruh tillarni va qardosh tillarni oʻrganish, tekshirish natijasida aniqlangan til hodisalarini, til dalillarini umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqaradi va shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beradi.

Tilshunoslik fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-tilning tabiati, ijtimoiy mohiyati, uning boshqa hodisalar ichida tutgan oʻrni, tuzilishi va taraqqiy etish qonuniyatlarini oʻrganish;

-til va jamiyat, tilning kishilik jamiyatidagi oʻrni, tilning ijtimoiy muhitga koʻra oʻzgarish xususiyatlari, tillarning sotsiolingvistik tasnifi kabilarni oʻrganish;

- til va tafakkur, til va psixologiya, til va semiotika kabi tilga bogʻliq masalalarni tadqiq etish;

- til va madaniyat, til madaniyati, til me'yorlarini belgilashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;

- tilning nutq va nutq faoliyati bilan munosabatini o'rganish;

- til strukturasi, bu strukturani tashkil etgan birliklarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash qonuniyatlari kabi muhim masalalarni ilmiy o'rganish;

- Tillarni o'rganish metod va usullari haqida fikr yuritish;

- xilma-xil tilshunoslik ta'limotlari, tilshunoslik maktablari va yo'nalishlarining shakllanishi va rivojlanishi, ularning fan taraqqiyotidagi o'rnini o'rganish va bu ilmiy maktab, yo'nalishlarning faoliyatiga xolisona baho berish, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari xususida fikr yuritish;

- tildagi muammo va masalalarni sinxroniya va diaxroniya (ya'ni hozirgi va tarixiy holati)da ilmiy tadqiq etish.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bu fan ko'p qamrovli, ko'p qirrali va har tomonlama boshqa fanlar va ularning sohalari bilan bog'liq bo'lgan fandır.

2.Tilshunoslik fanining tarmoqlari. Kishilarning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilni tilshunoslik fani o'rganadi. Tilshunoslikning quyidagi tarmoqlari mavjud.

1. Ekstralingvistika (ekstra – tashqi, lingvistika – tilga xos) tildan tashqarida, ammo bevosita til bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni o'rganadi. Ekstralingvistika quyidagi tarmoqlarga ajraladi:

A. Sotsiolingvistika. Bunda tilning tabiati va ijtimoiy vazifasi, ijtimoiy taraqqiyot sharoitlari o'rganiladi. Sotsiologiya va lingvistikaning sintezidan iborat bo'lgan bu soha til bilan ijtimoiy hayot faktlari aloqasi; ekstralingvistik omillar ta'sirida til taraqqiyotidagi faol jarayonlar; radio, televidenie, kino kabilarning keng tarqalishi bilan tilning og'zaki va yozma shakli o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi, til siyosatini yuritishning vazifa va shakllari; keng xalq ommasi nutq madaniyatini ko'tarish kabi muammolar bilan shug'ullanadi.

B. Metalingvistika. Bunda tilning tafakkur bilan, gapning fikr bilan o'zaro bog'liqligi, farqli tomonlari, tilning mazmun tomoni, nutq faoliyati, til birliklarining matn va sharoit bilan aloqasi o'rganiladi.

2. Intralingvistika. Bunda tilning ichki tizimi, uning birliklari va kategoriyalari, tilning fonologik, leksikologik va grammatik qurilishi, taraqqiyot yo'llari o'rganiladi.

3. Komparativistika. Bunda tillar qiyosiy tarzda o'rganiladi. Bu soha uchga bo'linadi:

A. Qiyosiy tilshunoslik. Bu soha o'z navbatida qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirma tilshunoslikka bo'linadi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bir-biriga qarindosh bo'lgan tillarni o'rganadi.

Turli tizimdagi tillarni qiyosiy o'rganish chog'ishtirma tilshunoslik ob'ektidir.

B. Areal (maydon) tilshunoslik. Tilning tarqalish doirasi, tillar xaritasi, mamlakatlarni til tomondan tasvirlash areal tilshunoslik predmeti sanaladi.

V. Tipologik tilshunoslik. Tipologiya tillarning qurilishidagi umumiy, universal holatlarni tekshiradi. Bunda barcha tillar, ularning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat'iy nazar o'rganilaveradi.

Tilshunoslik fanining sanab o'tilgan tarmoqlari negizida turli nazariyalar paydo bo'lgan.

3.Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Til jamiyatga xizmat qiluvchi vosita, jamiyatning muhim aloqa quroli bo'lganligi uchun jamiyat tarixi, shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixi bilan uzviy aloqadadir.

Til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langanligi uchun tilshunoslik bilimi tafakkurni o'rganadigan fanlar bilan: psixologiya, mantiq, falsafa fanlari bilan ham bog'liqdir.

Til xalq madaniyatini, hayotini, turli urf-odatlarini o'zida aks ettirib, shu jihatdan tilshunoslik har bir xalqning kelib chiqishi, tarkibi, urf-odatlari, moddiy, ma'naviy va ijtimoiy

madaniyatini o'rganadigan fan – etnografiya bilan ham aloqadadir.

Ma'lumki, ijtimoiy tuzumga aloqador, hayot bilan va kishilarning jamiyatdagi munosabatlari bilan bog'langan; ijtimoiy jamiyatning sinflarga bo'linishi, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini o'zgartirish bilan bog'liq qonunlarni sotsiologiya fani o'rganadi. Bu fan tilshunoslik bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etadi.

Qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklari asosida kishilik jamiyatining o'tmishini o'rganuvchi fan – arxeologiya ham tilshunoslik bilan bog'liqdir.

Tilshunoslik adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Ularning aloqasi, stilistika, adabiy til tarixi, badiiy adabiyot muammolarini o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Garchi tilshunoslik fani ijtimoiy fan bo'lsa-da, fizika, kibernetika, matematika, fiziologiya kabi tabiiy fanlar bilan ham bog'liq holda rivojlanadi.

Nutq tovushlari xususiyatlarini tasnif qilish tamoyillarini o'rganishda fizika fanining akustika bo'limi tilshunoslikka, uning fonetika sohasiga katta yordam bermoqda.

Chet tillarni o'qitish, mashina yordamida tarjima qilish, turli tipdagi lug'atlarni tuzishda tilshunoslik matematik metodlarga va kibernetika fani yutuqlariga tayanadi.

Tovushlar artikulyatsiyasi va eshitish qobiliyatini o'rganganda, nutqiy qobiliyatning buzilish sabablarini tekshirganda tilshunoslik fiziologiya, tibbiyot singari fanlarning yutuqlariga tayanib ish ko'radi.

Tilshunoslikning turli fanlar bilan aloqasi natijasida har xil nazariyalar paydo bo'ldi.

Xullas, tilshunoslik til haqidagi mustaqil ijtimoiy-tarixiy fan bo'lib, uning ob'ekti bo'lgan til tilshunoslikdan tashqari bir necha fanlar tomonidan o'rganishni talab qiladigan murakkab sohadir.

4. Tilshunoslik aspektlari. Tilshunoslik fani ham ko‘p aspektli fanlar qatoriga kiradi. Uning aniq til faktlariga ko‘ra bir necha turi mavjud:

1. Amaliy tilshunoslik.
2. Nazariy tilshunoslik.
3. Struktural tilshunoslik.
4. Xususiy tilshunoslik.
5. Umumiy tilshunoslik.

1. Tilshunoslikning lingvistik masalalarini amaliy yo‘l bilan o‘rganuvchi sohalari amaliy tilshunoslik sanaladi. Uning eksperimental fonetika, lingvistik tahlil, leksikografiya kabi yo‘nalishlari mavjud.

2. Nazariy tilshunoslik – tilshunoslikka doir asosiy qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar haqidagi tizimdir. Unda til haqidagi asosiy tushuncha va tamoyillar, qarashlar umumlashtiriladi. Tilning asosiy muammolari va dolzarb masalalari haqidagi yangi nazariyalar olg‘a suriladi.

3. Tilshunoslikda til komponentlarining ichki munosabatlarini, o‘zaro bog‘liqligini, tilning struktura tomonini yoritish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan yo‘nalish struktural lingvistika deb ataladi.

4. Xususiy (konkret) tilshunoslik har bir konkret tilning fonetik sistemasi, lug‘at sostavi, grammatik qurilishi va ularning taraqqiyot yo‘llari hamda bu tilning boshqa tillarga munosabatini o‘rganadi va shu asosda konkret tilning lug‘at boyligini, fonetikasini sinchiklab tekshiradi, ilmiy grammatikasini yaratib beradi.

5. Umumiy tilshunoslik tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari, tilning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati, tilning tuzilishi, til va nutq, til va tafakkur, tildagi belgilar tizimi, til taraqqiyoti, tilshunoslik maktablari va yo‘nalishlari, tillarni ilmiy tadqiq etish usullari haqida ma’lumot beradi. SHuningdek, bu fan ayrim tillarni, bir guruh tillarni va qardosh tillarni o‘rganish natijasida aniqlangan til hodisalarini

umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqaradi hamda shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. “Tilshunoslik nazariyasi” fanining maqsadi nima?
2. “Tilshunoslik nazariyasi” fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Ekstralingvistikaning tarmoqlarini aytib o‘ting.
4. Intralingvistikaning ekstralingvistikadan asosiy farqi nimada?
5. Tillarni qiyosiy tarzda o‘rganadigan tilshunoslik tarmoqlarini keltiring.
6. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi qanday?
7. Tilshunoslikning aspektlarini sanab o‘ting.
8. Umumiy tilshunoslik va xususiy tilshunoslikning farqi nimada?

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. –B.6-7.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995. –B.4-7.
3. Baskakov N va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. –B.5-12.
4. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1981. –B. 5-15.
5. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007. – B.4-6.
6. O‘rinboev B., Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. Ma’ruzalar matni. – Samarqand, 2004. –B.7-12.
7. Pardayev A. Tilshunoslik nazariyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 7-10.

**Qo‘shimcha o‘qish va mustaqil ishlar mavzulari uchun:
(1-mavzuga ilova)
Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati. Tilshunoslik va
aniq fanlar munosabati**

Reja:

1. Tilshunoslik va falsafa. Tilshunoslikning mantiq bilan munosabati.

2. Tilshunoslik va tarix. Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati.

3. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati. Sotsiolingvistika.

4. Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati. Psixolingvistika.

5. Tilshunoslik va adabiyot. Lingvopoetika.

6. Tilshunoslik va biologiya. Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika.

Tayanch so‘z va iboralar: *Bilish, falsafa, mantiq, adabiyot, lingvopoetika, tarix, etnografiya, etnolingvistika, sotsiologiya, sotsiolingvistika, psixologiya, psixolingvistika, biologiya, nutq tovushi, akustik, artikulyasion, funksional, nutq apparati nevrologiya, neyrolingvistika.*

Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati. Tilshunoslik mustaqil fan sohasi sifatida XIX asrdagina ajralib chiqdi. Lekin uning falsafa, psixologiya, mantiq, tarix, adabiyot fanlari bilan uzviy aloqadorligi saqlanib qoldi.

1. Tilshunoslikning falsafa fani bilan bog‘liqligi. Falsafa insonning o‘z mohiyatini anglashi, borliqning turli sohalariga oid hodisa va voqealar haqida ularning tub mohiyatini ifodalaydigan umumiy xulosalar chiqarishi demakdir. Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, o‘zaro bog‘liqlikda va rivojlanishda o‘rganish, ularning mohiyatini chuqurroq va to‘laroq bilishdir. Falsafaning markazida borliq va uni bilish muammosi yotadi. Til ham borliqdagi kishilarning aloqa vositasi sifatida inson bilimiga beriladi. Shunday ekan, har qanday fan, jumladan, tilshunoslik

ham falsafa bilan uzviy bog'lanadi. Barcha fanlar kabi tilshunoslik uchun ham u yoki bu falsafiy yo'nalish tadqiqot metodologiyasi bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tilshunoslik turli xil muammolarni obyektiv hal qilishda, ya'ni umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasini hisobga olishda, obyektning ziddiyatli tabiatini ko'rsatishda, obyektning sistemaviy xususiyatini yoritishda, shakl va mazmun dialektikasini e'tiborga olish, ularning o'zaro munosabatini yoritishda, teng qimmatli elementlar o'rtasida va turli qimmatli birliklar (butun bilan bo'lak, tur bilan jins) o'rtasidagi munosabat turlarini yoritishda falsafaga tayanib ish ko'radi.

Tilshunoslikning mantiq fani bilan bog'liqligi. Ularning aloqadorlik tomoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog'lanadi. Chunki tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan o'zaro munosabatda. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o'zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o'rtasida ham ana shunday dialektik aloqaning bo'lishi tabiiy.

Mantiq tafakkur shakllari, qonunlari va usullarini o'rganadi. U tushuncha, hukm shakllarini, xulosa chiqarish, isbot va rad etish holatlari orqali obyektiv voqelikning in'ikos etish jarayonida qanday bo'lish yo'llarini ko'rsatib, inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika bo'limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so'z va so'z birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Bu esa har bir savodli kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo'lsa, mantiqning shakl va qonunlarini bilish ham shunchalik zarur. Shu bilan birga, mantiq va grammatika qanchalik o'zaro zich bog'lanmasin, o'zlariga xos xususiyatlarga ham ega. Mantiq shakllari tushuncha, hukm, xulosalar hamma xalqlar uchun umumiy bo'lsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun har

bir tilning boshqasidan farq qiladigan o'z grammatikalari mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bog'liq, ular bir-birini to'ldiradi. Ayni paytda, o'z xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

2. Tilshunoslik va tarix. Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati. Jamiyatda ro'y bergan har bir o'zgarish shu jamiyatning tilida o'zining ma'lum izini qoldiradi. Shuning uchun jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar o'z o'rnini qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Ayni paytda, ma'lum lingvistik faktlarni tarixiy materiallarga suyanmasdan turib izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu esa jamiyat tarixi bilan shu jamiyat tilining va ularni o'rganuvchi tarix fani bilan tilshunoslik fanining naqadar aloqador ekanini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda til ikki yo'nalishda o'rganiladi: statik (sinxron) holati va dinamik (diaxron) holati. Til taraqqiyotining muayyan bir davridagi holati sinxron holat sanaladi. Til sinxron holatda o'rganilganda, uning hozirgi holati tadqiqot obyekti bo'ladi. Diaxron o'rganishda esa til birliklarining tarixiy taraqqiyotiga e'tibor beriladi. Lekin sinxroniya bilan diaxroniya o'zaro aloqadadir. Sinxroniya diaxroniya zanjiridagi bir halqa sanaladi. Shuning uchun ko'p hollarda diaxroniyasiz tilning sinxron holatini tushuntirish qiyin bo'ladi.

Til tarixi jamiyat tarixining tarkibiy qismi, shuning uchun til tarixini (tilni diaxronik o'rganish) jamiyat tarixidan uzilgan holda o'rganish mumkin emas. Tilda mavjud bir qator hodisalar mohiyati jamiyat tarixi asosida ochiladi.

Xalq tarixidagi har bir voqea, urf-odatlar, turmush tarzi uning tilida aks etadi. Shuning uchun til bilan shu til egasi bo'lgan etnos o'rtasida qanday mustahkam aloqa mavjud bo'lsa, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan xalq tarixi va etnografiya o'rtasida ham shunday aloqa bor. Shu sababdan, tilning shu til egasi bo'lgan etnos malaniyatiga munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida til bilan etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi aloqani

o'rganishga ehtiyoj tufayli etnolingvistika (grekcha etnos – xalq, qabila va lingvistika so'zlaridan olingan) yo'nalishi vujudga keldi. Etnolingvistika tillarning tasnifidan tashqari, yana tillarning va madaniyatlarning o'zaro ta'siri, bilingvizm masalalari, til taraqqiyotiga ijtimoiy madaniyatning ta'siri kabi muammolarni, turli etnik guruhlarda qo'llaniladigan paralingvistik vositalar, folklor materiallarini o'rganadi.

3.Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati. Sotsiolingvistika. Ijtimoiy tuzumga aloqador, hayot bilan va kishilarning jamiyatdagi munosabatlari bilan bog'liq qonunlarni o'rganadigan sotsiologiya fani ham tilshunoslik fani bilan aloqadordir. Bu fan va tilshunoslik fanining tutash nuqtasida alohida yo'nalish – sotsiolingvistika sohasi shakllandi. Sotsiolingvistika tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasidir. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq bo'lgan nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funktsiya(vazifa)lari, ijtimoiy omillarning tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan tilshunoslik sohasidir.

4.Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati. Psixolingvistika. Lisoniy faoliyat, bir tomondan, tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi tomondan, psixologiya ham tekshirish predmeti sanaladi. Shu sababdan, tilshunoslik bilan psixologiya ham kesishish nuqtasi mavjud bo'lib, bu ikki fan oralig'idagi kesishish nuqtasi psixolingvistikaning o'rganish obyekti sanaladi. Psixolingvistika nutqning vujudga kelish mexanizmini, bolalar nutqining shakllanish jarayonini, turli nutqiy vaziyatda nutqni

soʻzlovchi bilan tinglovchi oʻrtasidagi munosabatni hisobga olgan holda oʻrganadi.

5. Tilshunoslik va adabiyot. Lingvopoetika. Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina boʻlib qolmay, balki tinglovchiga taʼsir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi anʼanaviy va sistem-struktur tilshunoslikning oʻrganish obyekti boʻlsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning oʻrganish obyektidir. Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli boʻlib, badiiy asarlarda qoʻllanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini oʻrganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni oʻrganuvchi boʻlimidir. Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Mazkur atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin oʻzaro maʼlum jihatlari bilan farq qiladi. «Obraz», «uslub», «koʻchim (trop)», «badiiy til», «stilistika», «poetika» kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetikaga daxldor tushunchalardir.

6. Tilshunoslik va biologiya. Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika.

Tilshunoslik biologiya fani bilan ham uzviy aloqadadir. Avvalo, tilshunoslikning oʻrganish obyekti boʻlgan til tovushlar silsilasi yordamida moddiylashadi. Tovushlar esa nutq birligi sifatida muayyan nutq organlarining faoliyati natijasida yuzaga chiqadi. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan nutq organlari nutq apparati sanaladi.

Nutq apparati tarkibiga kiruvchi nutq organlari inson organizmining tarkibiy qismidir. Har qanday nutq organi ikki xil vazifa bajaradi: 1) birlamchi vazifasi insonning fiziologik aʼzosi. Bunday aʼzo sifatida ular inson organizmining normal yashashi uchun zarur tabiiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi; 2) ikkilamchi vazifasi nutq organi. Bu faqat homo

sapiensga xos xususiyatlar bo'lib, birlamchi vazifasi ustiga qo'shimcha vazifa – ma'lum nutq tovushlarini talaffuz qilish vazifasi qo'shiladi. Shunday qilib, bu organlar ham biologiyani, ham tilshunoslikning tekshirish obyekti bo'ladi.

Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya bo'limi bilan ham uzviy aloqada. So'nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oralig'ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog'i vujudga keldi. Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekani, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalarini o'rganadi. Sodda qilib aytganda, neyrolingvistikaning o'rganish obyekti afaziyadir.

Bundan tashqari, tilshunoslikda valentlik atamasining keng tarqalishi, invariant – variant tushunchalarining paydo bo'lishi kimyo fanining, yadro-preferiya munosabatlari fizika fanining, tilshunoslikda keng qo'llanilayotgan statistik metodlar matematika fanining ta'siri orqali maydonga keldi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Borliq va uni bilish muammosi qaysi fanda o'rganiladi.
2. Til va etnografiya fanining oralig'idagi fan nima deb nomlanadi.
3. Sotsiologiya fani va tilshunoslik fanining tutash nuqtasida shakllangan
yo'nalish nomini ayting.
4. Tilning badiiy-estetik funksiyasini o'rganadigan bo'limning nomini ayting.
5. Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o'rganish qaysi fanning obyekti?
6. Tilshunoslik va psixologiya fanlari oralig'idagi fan?
7. Tilshunoslikni biologiya takibidagi fan sifatida tilni biologik hodisa sifatida o'rgangan yo'nalish?
8. Tilshunoslik va nevrologiya oralig'dagi fan nomini ayting.
9. Nutq tovushlarining artikulyatsion belgisi qaysi fanda ham o'rganiladi.

10. Tilshunoslikda valentlik nazariyasi qaysi fan ta'sirida shakllandi?

Adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001. –B.24-72; 91-95; 108-114; 120.

2. Aliqulov Z. Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. – Samarqand: SamDU nashri, 2010. –B.4-8.

Bu fikrlarga e'tibor bering!

Inson insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlashga muhtojdir, har bir insonning tabiatida boshqa bir kishi yoki ko'pchilik bilan fikrlashish, o'zaro lisoniy aloqa qilish xususiyati bor. (Abu Nasr Forobiy).

Til so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir. Shuning uchun til zamonning bir onidek, turg'un qismi kabi cheklanib qoladi. (Abu Rayhon Beruniy)

Ko'ngil mahzanining qulfi til va mahzanning kalitin so'z bil. (A.Navoiy).

Til aloqa vositasi sifatida ijtimoiy hodisadir va u kollektivning yutug'idir. Tildagi o'zgarish aloqada shaxsga bog'lik emas. Til aloqa vazifasini bajaruvchi vosita sifatida murakkab ifoda vositasiga egadir. (A.Meye).

Tilning butun qudrati – uning xalq dilida va mehnat jarayonida yaratilib, boyib borishi bilan bog'liqdir (P.Qodirov).

Jonli til – aloqa qurolidir. Aloqa esa hamisha so'zlovchidan eshituvchining ehtiyojini hisobga olishni talab qiladi (P.Qodirov).

Til mohiyatan bitmas-tuganmas, cheksiz-chegarasiz ifoda imkoniyatlarining jamidir (N.Mahmudov).

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim va tajribalarning to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga etkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi (N.Mahmudov).

Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir (N.Mahmudov).

2-mavzu: Til – ijtimoiy hodisa sifatida. Til va tafakkur. Til va nutq munosabati

Reja:

1. Til – ijtimoiy hodisa sifatida.
2. Til va tafakkur.
3. Til va nutq munosabati.

Tayanch so'z va iboralar: *Til, tilning ijtimoiyligi, til va tafakkur, til va nutq dixatomiyasi, til birliklari: fonema, morfema, leksema, model; nutqning asosiy birliklari: tovush, fon, bo'g'in, affiks, morf, so'z, so'z shakl, so'z birikmasi, gap, mikromatn, makromatn.*

Insonning tabiiy-biologik xususiyatlari kishilik jamiyatidan tashqari, jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda, masalan, yangi tug'ilgan go'dak hayotining takomili (nafas olishi, korishi, ovqat yeyishi, asta-sekin yurib ketishi va hokazolar) tabiat qonunlariga muvofiq holda taraqqiy etaveradi, o'saveradi. Ammo til bunday tabiiy biologik hodisa emas. Uning tabiiy biologik hodisa emasligini ko'rsatuvchi bir necha omillar mavjud. Bular quyidagilar:

1. So'zlashish, fikrlash uchun kishilik jamiyatining bo'lishi shart.
2. Tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiy qilishi tabiat qonunlariga bog'liq emas.
3. Til kishilarning tabiiy belgilariga (oq-qoraligi va boshqa irqiy belgilariga) bog'liq emas.
4. Faqat jamiyat bo'lib uyushgan insonlarga aloqa vositasi bo'lgan tilga ega.

Demak, til tabiiy-biologik hodisa bo'lmay, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladigan, subyektga bog'liq bo'lmagan ijtimoiy hodisadir. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi butun tarixiy jarayonida ma'lum bir guruh tomonidan emas, balki

butun jamiyat va jamiyatning a'zolari tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u biror davrning, biror ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning mahsuli bo'lmay, balki butun jamiyat tarixi jarayonidagi bir qancha davrlarning mahsuli va shu bilan birga til jamiyatdagi turli tabaqa vakillari uchun bab-baravar xizmat qiladigan vositadir.

Til alohida tizim sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.*Aloqa – munosabat vazifasi.* Tilning mazkur vazifasi jamiyatda aloqa – munosabat vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Bu tilning asosiy ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Til belgilari uni aloqa - munosabatning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Til aloqa – munosabatning muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush tarzi va mehnat faoliyatidagi har bir jarayon bilan muntazam bog'liq. Kishilar o'z fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir – birlariga ta'sir ko'rsatadilar.

2.*Tilning hissiy ta'sir vazifasi.* Tilning muayyan ma'lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta'sir ko'rsatishi uning hissiy- ta'siriy vazifasi hisoblanadi. Xabar, sezgi va hayajon, xohish ifoda qilish hissiy ta'sir vazifasining asosini tashkil etadi. Bunda turli tasviriylar til vositalaridan, jumladan, modal so'zlar, javob talab qilmaydigan so'roq, tartibni o'zgartirish kabilardan foydalaniladi.

3. *Tilning to'plash vazifasi.* Til aloqa – munosabat vositasi, hissiy ta'sir ifodasi bo'lib qolmay, to'plash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir. Til millatlararo aloqa - munosabat vositasi, to'plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi bilish jarayonidagi asosiy vositalardan hisoblanadi. Bevosita aloqa-munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon bo'ladi. Mustaqil so'zlar, qo'shma nomlar, iboralar, atama nomlovchi birliklar hisoblansa, turli gap ko'rinishlari fikr ifodalovchi birlik hisoblanadi.

Tilning kishilik jamiyatidagi o'rnini, madaniy-ma'naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilash tilning asosiy vazifalarini to'g'ri ta'riflashga asoslanadi.

2.Til va tafakkur. Tafakkur va tilning, aniqroq qilib aytganda, fikr bilan so'zning o'zaro munosabati juda murakkab jarayondir. Har qanday fikr so'zlarda o'z ifodasini topmaguncha, ya'ni so'zlardan tarkib topgan ifoda qolipiga, ifoda shakliga tushmaguncha yuzaga chiqmaydi. Fikrning voqeligi, uning mavjudligi tilda namoyon bo'ladi. Demak, fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ladi. Tilsiz, so'zsiz tarkibiy qismlarga ajralgan, aniq va tayyor holdagi hech qanday fikr bo'lmaydi. Fikr tilda, ya'ni so'z orqaligina shakllanadi, tilda o'z ifodasini topadi. Shunday qilib, ongimizda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi bilangina voqe bo'ladi. Ong psixikaning oliy shakllaridan biridir. U inson o'zini o'rab olgan dunyodan inson sifatida farqlay olgan davridan boshlab paydo bo'lgan.

Ongning paydo bo'lishi nutqning paydo bo'lishi, unda aks ettirilayotgan dunyo voqeliklarining umumlashtirilishi bilan bog'liq. Bu esa so'zning umumlashtirish va anglab olingan bilimlarni tilda saqlay olish xususiyati bilan bog'liqdir. Shaxs ongi ijtimoiy ong zaminida shakllanishiga qara-may undan farq qiladi. Ongni jamiyat yuzaga keltiradi, shu bilan birga u jamiyatga faol ta'sir o'tkazadi. Tushuncha tafakkur sifatida vujudga kelib so'zning moddiy qobig'iga o'ralgan holda u bilan birga yashaydi. Biror tushunchasiz so'z bo'lmaganidek, so'z yordamisiz ifodalangan tushuncha ham yo'q. Til va tafakkur birligi mana shunda ifodalanadi.

So'zda mujassamlashgan tushuncha uning ma'nosi bilan organik aloqada bo'ladi. Tushuncha bilan so'z ma'nosi predmet va hodisalarning ayni bir doirasini umumlashtiradi va aks ettiradi. Ular o'rtasidagi birlik mana shunga asoslanadi. Ammo so'z ma'nosidagi umumlashtirish va aks ettirish tushunchadan farq qiladi. Tushuncha predmet va hodisalarning umumiy,

muhim belgilarini o'zida mujassamlashtiradi, bunda tafakkur ana shu predmetlarga xos tasodifiy va muhim bo'lmagan belgilardan chalg'itiladi. Masalan, suyuqlik tushunchasida har xil jismlar ajratiladi va ular agregat holati bo'yicha birlashtiriladi. Bu tushunchaga molekulalarning suyuqlik uchun xarakterli aloqasiga ega bo'lgan, ularning individual, ayni holatda muhim bo'lmagan belgilariga qaramasdan, har qanday jism kiradi. Tushunchalar faqat tovushli so'z yordamida shakllanishi va taraqqiy etishi mumkin. Ammo so'zda bevosita umumlashtiruvchi tomon uning ma'nosidir. Ma'no tushuncha bilan uzviy aloqada, fikrda predmet va hodisalarning umumiy hamda muhim tomonlarining aks etishiga yordamlashadi.

Xullas, tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy hodisalar hisoblansa-da, aynan bir xil hodisa emas. Tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in'ikosi. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni qayd etib boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasi. Boshqacha aytganda, til — tafakkurning borliq shakli. Ular doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birining yashashi va rivojlanishiga yordam beradi.

3.Til va nutq munosabati. Ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo'yilgan, hamma uchun umumiy, ya'ni qabul qilinishi va qo'llanishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash uchun xizmat etadigan birliklar va bu birliklarning o'zaro birikishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi til deb ataladi. Til inson ongidagi psixofizik hodisa bo'lib, o'ziga umumiylik, mohiyat, imkoniyat kabi sifatlarni mujassamlashtirgan. U o'zining bu sifatlarini aniq shakllarda-xususiy hodisa va voqeliklar sifatida, rang-barang miqdoriy ko'rinishlarda gavdalantiradi. Shu jihatdan til va nutqning o'ziga xos nisbiy mustaqil birliklari mavjud: fonema, morfema, leksema, konstruktsiya til birliklari hisoblansa; tovush, fon, bo'g'in, affiks, morf, so'z, so'z shakli, so'z birikmasi, gap, matn nutq birliklari sanaladi.

Kishilar o‘zaro aloqa qilish jarayonida til nutqqa aylanadi va ma’lum vazifani bajaradi. Nutq so‘zlovchining va umuman tildan foydalanuvchilarning shu tilda so‘zlovchi guruh a‘zolari bilan o‘zaro aloqa qilish faoliyatidir. Bu faoliyatda so‘zlovchi yoki yozuvchi o‘z fikrini, his-tuyg‘u, kechinmalarini til vositalari orqali ifodalaydi va tinglovchiga yetkazadi.

Til bilan nutq bir-biridan ajralib qolgan, bir-birini «inkor» qiladigan ikki hodisa emas. Til bilan nutq orasidagi dialektik munosabat shundan iboratki, nutqiy faoliyat jarayonida nutq shakllanadi, nutq til unsurlaridan tuziladi va til unsurlariga ajralib ketadi, til unsurlari yana nutq uchun xizmat qiladi.

Til va nutq haqida nazariy adabiyotlarda bayon etilganlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, quyidagi xususiyatlarni qayd etish mumkin:

1. Til aloqa material—nutq esa aloqa shaklidir.
2. Tilni xalq yaratadi—nutqni esa har bir shaxs yaratadi.

3. Tilning hayoti uzoq, xalq hayoti bilan bog‘liq, nutqning hayoti qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud. Yozma nutq bundan mustasno. Chunki yozma nutqni istalgan joyga yetkazish mumkin. Uni asrlar davomida saqlab avloddan-avlodga o‘tkazish mumkin. Ayrim shaxslar ayni bir zamonda bir necha tilni bilishi mumkin, chunki u vaqt va o‘rin bilan bevosita bog‘langan, ayrim shaxsning nutqi ayni zamonda faqat bitta bo‘ladi; chunki u ma’lum vaqtda va ma’lum o‘rinda yuz beradi.

4. Tilning hajmi noaniq—nutqning hajmi aniq: u dialog, monolog, ayrim matn, kitob shakllarida bo‘lishi mumkin.

5. Til birliklari paradigmatic, nutq birliklari sintagmatic bog‘lanishda yashaydi.

6. Til tizimi fonema, leksema, morfema, so‘z birikmasi va gap kabi til birliklariga oid bo‘lgan kichik tizimlarning o‘zaro tashkil etuvchilik roli asosidagi bog‘lanishidan vujudga keladi.

Nutq tizimi esa turli tipdagi kichik til tizimlaridan tanlab olingan birliklar yordamida hosil qilinadigan, shaxsiy

kommunikativ maqsad uchun xizmat qilib, o'zining fizik, moddiy ko'lamiga ega bo'lgan hosilalar bilan ish ko'radi.

7. Til birliklariga avvaldan barqarorlik, doimiylik va majburiylik xususiyati, nutq birliklariga esa vaqtinchalik va erkinlik xususiyati xosdir.

Xullas, til uchun umumiylik, imkoniyat, tayyorlik, majburiylik, birliklari chegaralanganlik xos bo'lsa, nutq uchun xususiylik, voqelik, hosilalik, ixtiyoriylik, birliklari chegaralanmaganlik xosdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilning tabiiy biologik hodisa emasligini ko'rsatuvchi qanday omillar mavjud?

2. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatuvchi bir nechta omillarni sanab o'ting.

3. Til alohida tizim sifatida qanday vazifalarni bajaradi?

4. Fikrlash bilan so'zlash o'rtasida qanday bog'liqlik va farq bor?

5. "Tafakkur" so'zining ma'nosini izohlang.

6. Til va tafakkur ayrim-ayrim holda mavjud bo'lishi mumkinmi?

7. Tafakkur va til o'rtasidagi munosabatni misollar asosida tushuntirib bering.

8. Til birliklari va nutq birliklari sanang. Ularning birini ikkinchisidan farqini tushuntiring.

Adabiyotlar:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1995. –B.7-8.

2. Ismoilov B. Dunyoni bilishda til va tafakkur birligi. –Toshkent: Fan? 1966. –B. 55-90.

3. Ne'matov X., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O'qituvchi, 1993. –B. 5-28.

4. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: O'qituvchi, 1972. –B.148-151.

5. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007. –B.23-29.

6.O‘rinboev B., Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. Ma’ruzalar matni. – Samarqand, 2004. –B.164-168.

7.Pardayev A. Tilshunoslik nazariyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 37-40.

**Qo‘shimcha o‘qish va mustaqil ishlar mavzulari uchun:
(2-mavzuga ilova)**

**Til madaniyati va nutq madaniyati. Adabiy til va me’yor
Peja:**

1.Til madaniyati va nutq madaniyati.

2.Adabiy til va me’yor.

Tayanch so‘z va iboralar: *til madaniyati, nutq madaniyati, to‘g‘ri, aniq, tushunarli qilib gapirish, ifodali o‘qish, urg‘u, ohang, adabiy til.*

Til madaniyati va nutq madaniyati hodisalari bir-birini inkor qilmaydigan, biri ikkinchisi bilan aloqador sohalar sanalsa-da, bu terminlarning birini ikkinchisiga qorishtirmaslik kerak. Til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til tizimining o‘zini, masalan, o‘zbek adabiy tili tizimining vosita va imkoniyatlarini ko‘zda tutadi, uning madaniylik darajasini ko‘rsatadi.

Til madaniyati tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra ancha murakkab hodisadir. Birinchidan, til madaniyati ma’lum adabiy til sohasidagi madaniylik uchun kurash tarixini, bundagi shakllanish, rivojlanish jarayonlarini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, til madaniyati adabiy tilning muayyan davridagi madaniy til sifatidagi kamolot darajasini ko‘rsatadi. Demak, til madaniyati deganda, adabiy tilni qayta ishlash (nazariy jihatdan), silliqalashtirish, adabiy tilning yanada rivojlanishiga, takomillashuviga ko‘maklashish, adabiy tilga bo‘lgan ijobiy munosabat tushuniladi.

Nutq madaniyati madaniy, ma’naviy hayotning zaruriy talablari asosida paydo bo‘lgan hodisadir. Tildan foydalanishda o‘z fikrini to‘liqroq, aniqroq va hatto ifodali hamda ta’sirchan qilib ifodalash, madaniy gapirishga intilish, to‘g‘ri, aniq,

tushunarli qilib gapirish, tilning ifoda vositalaridan – soʻzlar, qoʻshimchalar, urgʻu va ohang kabilardan oʻrinli va unumli foydalanish nutq madaniyatining oʻziga xos sifatlaridir.

Adabiy til va meʼyor. Oʻzbek adabiy tili va uning meʼyorlarini tekshirish oʻzbek nutqi madaniyati sohasining asosiy vazifa va burchidir. Oʻzbek adabiy tili meʼyorlarini bu tilning barcha sathlari, adabiy nutqning turli koʻrinish va uslublari boʻyicha chuqur tadqiq qilish muhimdir. Bu oʻzbek adabiy soʻzlashuv tilining madaniy-namunaviy koʻrinishlarini aniqlashga, oʻzbek nutqi madaniyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Har qanday milliy til, uning ijtimoiy-vazifaviy va yashash koʻrinishlari (adabiy til, shevalar, lahjalar, jargonlar va boshqalar) meʼyorga egadir. Ular mana shu meʼyorlarga koʻra, bir-biridan farqlanadi yoki mushtarak boʻladi. Shuning uchun ham meʼyor til birliklarining qoʻllanish doirasini maʼlum tarzda reglamentatsiya qiladi, yani tizimda mavjud boʻlgan imkoniyatlarning qandaydir bir qismigina meʼyorda amalga oshiriladi. Shunday qilib, meʼyor maʼno jihatdan bir xil ahamiyatga ega boʻlgan bir necha imkoniyatlarni tanlab olish jarayonini boshqarib turuvchi vazifasini bajaradi va u oʻz navbatida quyidagi koʻrinishlarda uchraydi:

1. Oʻzbek tilining umumiy meʼyori yoki oʻzbek umumtil meʼyori.
2. Oʻzbek adabiy tili meʼyori.
3. Oʻzbek tilining lahjaviy meʼyori.
4. Oʻzbek tilining ijtimoiy dialektlari meʼyori

Ana shu meʼyorlarni ikki katta guruhga: umumiy va xususiy meʼyorlarga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiq boʻladi. Shu maʼnoda oʻrganganda yuqoridagi meʼyoriy koʻrinishlarning birinchisi umumiy, qolganlari xususiy meʼyorlar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Demak, yuqorida koʻrib oʻtganimizdek til meʼyori til sistemasining hamma darajalarida namoyon boʻladi, ayniqsa, adabiy tilda bu kuchayadi va maʼlum til sistemasining taʼsirida

paydo bo'layotgan bevosita individual nutq sistemalarida ifodalanadi.

Adabiy me'yor – bu ma'lum bir bosqichdagi til yashashining qonuniyatidir. U yozuvda mustahkamlangan bo'lib, hamma uchun umumiy namuna hisoblanadi. U barqaror, shu bilan birga rivojlanuvchi, muntazam ravishda funksional chigaralangan bo'ladi.

Adabiy me'yor tilning boshqa me'yorlaridan farq qiladigan muhim belgilarga ega. Ongli boshqarilish va ishlanishi, real va obyektivligi, kodifikatsiyalashganligi (ongli aralashuv tufayli tanlanganligi), barqarorligi, konservativ va ayni paytda dinamikligi, an'anaviy va zamonaviyligi, tipikligi, jamoa tomonidan keng qo'llanilishi, variantdorligi, uslubiy tarmoqlanganligi, yozuvda mustahkamlanganligi, turg'unligi, ayni paytda, davr o'tishi bilan o'zgarishi mumkinligi, namunaviy va xalqchilligi, tilning amalda bo'lishi uchun zaruriyligi me'yorning ana shu muhim xususiyatlari sifatida baholanadi.

O'zbek adabiy tili me'yorining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- leksik-semantik (so'z qo'llash) me'yorlar;
- orfoepik (talaffuz) me'yorlar;
- aksentologik (so'z va formalarda urg'uning turg'unligi) me'yorlar;
- fonetik me'yorlar;
- grammatik me'yorlar;
- so'z yasaliş me'yorlari;
- orfografik me'yorlar;
- grafik me'yorlar;
- punktuatsion me'yorlar;
- stilistik me'yorlar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Til madaniyati va nutq madaniyati o'rtasidagi farqni ayting.
2. Me'yor deganda nimani tushunasiz?

3. Me'yor til tizimining barcha sathlariga xos hodisami?

4. Adabiy me'yor nima va uning qanday turlari mavjud?

Adabiyotlar:

1. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.

2. Begmatov E., Tursunpo'latov M. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – B.47-51.

3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – Toshkent: II qism. – Toshkent: Navro'z, 1998. – B.11-54.

4. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – Toshkent: III qism. – Toshkent: Navro'z, 1999. – B.11-24.

5. Karimov S. Til ta'limi va me'yor. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – B.38-70.

Bu fikrlarga e'tibor bering.

Til va tafakkur munosabati haqida

Ki har neni bilmish odamizot. Tafakkur birla qilmish odamizot (*A. Navoiy*).

Til – tafakkur quroli. Tilga palapartish munosabatda bo'lish – palapartish noaniq, taxminan, nodurust fikr qilish hamdir. (*A. Tolstoy*).

Til bilan tafakkur, gap bilan mantiqiy hukm to'la teng kelmaydi. "Grammatik gap mantiqiy hukm bilan butunlay teng va parallel emas" (*A.A. Potebnya*).

Tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasidir, o'sha tafakkur va tuyg'ular orqali so'z yordamida mamlakat tabiati va xalq tarixi ifoda etilgan (*K. D. Ushinskiy*).

Inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib boradi.

Til, o'z holicha faqat vosita bo'luvchi materialdir... Fikrning harakati tufayli tilning harakati ham hamma vaqt muhimdir. (*V.G. Belinskiy*)

Tilni nutqdan yoki tilni tafakkurdan to'la ajratgan holda tasavvur qilish va talqin etish til falsafasidagi eng jiddiy va katta kamchilik, xatodir. Ularga sohalar doirasidagi hodisa

sifatida ajratgan holda yondashish mumkin bo'lsa-da, aslida ular ajralmasdir. (Yo. Tojiyev).

Til va nutq munosabati xususida

Til muncha sharafi bila nutqning olati (quroli)dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur (A.Navoiy).

Nutq uchun xomashyo vazifasini til boyligi o'taydi. Nutq jarayonida biz tilning lug'at sostavidagi, grammatik qurilishidagi elementlardan va shularni o'zaro biriktirish, bog'lash qoidalaridan foydalanib birikma va gap hosil qilamiz. Bunday elementlarga til birliklari deyiladi (Sh.Rahmatullayev).

Nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi, nutq til elementlaridan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi, til elementlari yana nutq faoliyati uchun xizmat qiladi. (S.Usmonov).

Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan "til –til qobiliyati – nutq zanjirida faqat nutqqina tashqi (moddiy) formada (og'zaki, yozma, turli shartli belgilar vositasida) namoyon bo'ladi va bizning sezgi a'zolarimiz tomonidan qayd etiladi (eshitiladi, yoziladi, ko'riladi, o'lchanadi). Til esa yashirin ichki hamda ideal hodisa sifatida anglanadi, tasavvur etiladi. (H.Ne'matov, O.Bozorov).

Tilda ortiqcha narsa yashamaydi. Nutqda ortiqcha narsalar ishlatilishi mumkin. Biroq nutqda ortiqcha deb belgilangan narsa (birlik) boshqa vazifada qo'llangan bo'lsa, bu ortiqchalik hisoblanmaydi. (Yo. Tojiyev).

Til madaniyati va nutq madaniyati xususida

Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilib va oxirini o'ylab so'ylangan so'zdir. (A. Avloniy)

Tilning tozaligi uchun qayg'urish til madaniyatida o'z ifodasini topadi. ("Praga lingvistik to'garagi tezislar" dan)

Til madaniyati muammosi ...adabiy nutq uslubiylatining vazifasi va talablari bilan butunlay mos keladi deb, o'ylash noto'g'ridir. Masalaning asosiy mohiyati shundaki, nutq

madaniyatining tekshirish doirasi muayyan davrda adabiy nutq va adabiy til sistemasi doirasiga kirmagan ijtimoiy-uslubiy nutqiy tomonlarni ham o'zida qamraydi. (V.V.Vinogradov)

Til me'yori xususida

Til normalarini takomillashtirish, nutq madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish so'zning fonetik strukturasi, leksik-semantik, stilistik xususiyatlarini, uning yasaliish va o'zgarish, qo'shilish va birikish qonuniyatlarini aks ettiruvchi adabiy normalarni yana ham aniqlash, mukammallashtirish hozirgi kunning aktual vazifalaridan biridir. (A.G'ulomov).

Me'yor – til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir. (H.Ne'matov, R.Rasulov).

Til o'z ijtimoiy vazifasiga ko'ra me'yoriy tizim bo'lib, har qanday til ma'lum me'yorlarga ega bo'lishi shart. Shuning uchun ham me'yoriy jarayon til qadar qadimiyydir va u tilning doimiy yo'ldoshidir. (E.Begmatov).

Biz o'rganayotganimiz me'yor masalasi ijtimoiy hayotimiz uchun yangilik emas. Til va jamiyat mavjudki, bu masala ham o'rtada. Ammo, har bir davr o'z taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tildan foydalanishning o'z muammolarini, dolzarb vazifalarini keltirib chiqaraveradi. (S.Karimov).

3-mavzu: Til va jamiyat

Reja:

- 1.Til va jamiyat, ular o'rtasidagi munosabat. Sotsiolinvistika.
2. Standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik, avtonomlik.
- 3.Ijtimoiy tilshunoslik tipologiyasi.
- 4.Til tizimi va til qurilishining ijtimoiy shartlanganligi.

Tayanch so'z va iboralar: sotsiolinvistika, standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik, avtonomlik, standart tillar, klassik tillar, mahalliy tillar, milliy tillar, pinyin tillari, kreol tillari, dialektlar, sun'iy tillar.

1.Til va jamiyat, ular o‘rtasidagi munosabat. Sotsiolingvistika. Til jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida jamiyat bilan uzviy aloqadadir. Chunki jamiyatda ro‘y bergan har bir o‘zgarish shu jamiyatning tilida o‘zining ma’lum izini qoldiradi. Shuning uchun ham jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo‘ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri, uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog‘liq.

Til nafaqat jamiyatda fikr almashish, tafakkurni izhor qilish, aloqa quroli vositasini o‘taydi, balki u ishlab chiqarishni tashkil qilishda, moddiy va madaniy boyliklar yaratishda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi, faol ta’sir etadi. Chunki fikrlar almashuvisiz ijtimoiy ishlab chiqarish bo‘lishi mumkin emas. Bu esa kishilarga mana shu funksiyani bajaradigan, hammaga tushunarli til bo‘lishi lozimligini taqozo etadi. Mana shu ma’noda u jamiyatni olg‘a tomon harakat ettiruvchi kuchlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda tilning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funktsiya(vazifa)lari, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan alohida tilshunoslik sohasi shakllangan bo‘lib, bu tilshunoslik sohasi sotsiolingvistika deb nomlanadi. “Sof” lingvistik lisoniy belgilarni, chunonchi, tovush va uning yozma ifodasini, uning boshqa belgilar bilan o‘zaro munosabatini, vaqt va zamonda o‘zgarishini va h.k. tahlil qilish bilan shug‘ullansa, sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarni ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatlilik darajasiga ko‘ra qanday qo‘llashlarini, ya’ni ijtimoiy muhitning ularning nutqiy muomalasiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Bu fan butun tilga tegishli bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni, til va jamiyat munosabatlarini, nutq so‘zlovchisiga, tilning kelib chiqishiga,

uning umumiy xususiyatlariga munosabatlarni, turli tillarning individual variantlilikiga va mikrojarayonlar (shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqoti)ni, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga ta'sirini o'rganadigan fandır. Demak, sotsiolingvistikaning obyekti til yoki tillarning ijtimoiy faoliyatidir. Til muayyan ijtimoiy strukturaga ega bo'lgan jamiyatda faoliyat ko'rsatadi, shunga ko'ra, sotsiolingvistikani tilni ijtimoiy kontekstda o'rganadigan fan deyish mumkin.

2. Standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik, avtonomlik. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda *tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylik* kabi qator mezonlarga amal qiladi.

Avvalo, til voqelik sifatida mavjud bo'lishi uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichini o'tishi kerak. Tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi uning *tarixiyligi* bilan bog'liq.

Tilning *hayotiyligi* uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjulligidir. Til hayotiyligini yo'qotsa, o'lik tilga aylanadi. Til hayotiy bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo'ladi. Ba'zan o'lik tillar qaytadan tirik tilga aylanishi mumkin, degan fikr ham mavjud va buning isboti sifatida ivrit tilini misol qilib keltirish mumkin. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak. Negaki, til aloqa munosabat vositasi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdimi, uni sun'iy ravishda tiklab bo'lmaydi.

Sotsiolingvistikadagi *me'yoriylik* mezoni deyilganda tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiqlashtiriluvi tushuniladi. Til grammatikasiga oid qonun-qoidalarining yaratilishi me'yorlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Me'yorlashtirilgan til muayyan jamiyatning

ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, muayyan qonun-qoidalar asosida muvofiqlashtirilgan milliy-adabiy tildir.

Hududiylik tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligini ifoda etadi. Hududiylik millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog'liq. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning boshqa-boshqaligi tillar o'rtasidagi farqlar uchun asos bo'ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo'lishi hududning farq qilishidan qat'i nazar, aloqa-munosabat vositasining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek va tojik tillarida har bir tilning o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo'lgan o'zbek va qirg'iz tillari o'rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlar bor. Adabiy til va shevalar o'rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq farqlar kuzatiladi.

3. Ijtimoiy tilshunoslik tipologiyasi. Sotsiolingvistik jihatdan jahon tillarining quyidagi standart tillar, klassik tillar, mahalliy tillar, kreol tillar, pinyin tillar, dialektlar, sun'iy tillar kabi tiplari mavjud.

1. Adabiy til me'yoriga ega bo'lgan, jamiyatda davlat tili, adabiy til sifatida xizmat qiluvchi tillar standart tillar sanaladi. Masalan, o'zbek, rus, tojik, turkman, ukrain kabi tillar.

2. Yozuvga ega bo'lib, o'z davrida mukammal takomiliga etgan, buyuk asarlar yaratilgan tillar klassik tillar sanaladi. Klassik tillar o'z davri uchungina emas, balki tillarning keyingi taraqqiyoti uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday tillarning adabiy tillardan farqi shundaki, ular o'lik tillardir. Masalan, lotin tili, sanskrit tili, sug'd tili, xorazmiy tili.

3. Son jihatidan ko'p bo'lmagan kichik xalqlarga xizmat qiluvchi, o'z yozuviga ega bo'lmagan tillar mahalliy tillar sanaladi. Masalan, Amerika mahalliy hindularining tili.

4. Kreol tillar. Mustamlakachilik natijasida dunyoning turli qit'alarida ingliz, fransuz, ispan, portugal tillari elementlari aralashuvidan tashkil topgan tillar. Masalan, Gaiti, Aruba,

Bonayre orollarida paydo bo'lgan gatti, ispan-nautil, papiyamento tillari kreol tillari jumlasiga kiradi.

5. Pijin tillari. Mahalliy tillarning Evropa tillari bilan chatishuvi natijasida yuzaga kelgan. Pijin tillari kreol tillarining dastlabki bosqichidir. Masalan, rus tilining xitoy dialekti asosida shakllangan til *kyaxti* deb nomlanuvchi til pijin tilidir.

6. Sun'iy tillar. Maxsus yaratilgan xalqaro aloqa tillari. Bunday sun'iy tillar qatoriga esperanto, ido, volyapyuk, oksidental, interlingva, neo tillari kiradi.

7. Ma'lum bir qabila, xalq, millat tarkibiga kiruvchi kichik hududga tarqalgan aholi tili dialektdir.

4.Til tizimi va til qurilishining ijtimoiy shartlanganligi.

Til va jamiyat muammosini yanada chuqurroq va aniqroq anglash uchun ularning til tizimi, til qurilishiga munosabatini to'g'ri anglash muhimdir.

Har bir adabiy tilda so'zlaydigan yoki yozadigan kishi sharoit taqozasiga ko'ra tilda mavjud so'zlar, grammatik shakllar, so'z birikmalari va gap tuzilishining ma'lum qismidangina foydalanadi. Mana shu ma'noda tilning zahiraviy imkoniyatlari hattoki jamoa nutqi doirasida ham hech qachon to'lig'icha ishga solinmaydi.

Tilning imkoniyatlari uning reallashgan, amalda qo'llanuvchi holatidan doimo ortiq va keng bo'ladi. Har tildagi mana shunday boy imkoniyatlar bu tilning umumiy vositalari tizimini tashkil etadi.

Til tizimini: a) tilda amalda mavjud, qo'llanayotgan, b) tilda o'tmishda qo'llangan, v) tilda kelajakda qo'llanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar majmui, murakkab yig'indisi deb tushunish kerak.

Til tuzilishi muayyan davrda qo'llanayotgan real tizimlardir. Til tuzilishi tildagi ko'pqirrali unsurlarning bir butunlik doirasidagi birligidir. Til tuzilishida til tizimidagi imkoniyatlar amalga oshadi. Til tuzilishi har qanday tilning asosi bo'lib, u nutqda turli darajada yuzaga chiqadi, namoyon bo'ladi. Bunga sabab kishilar tildan turli konkret sharoit va

holatlarda foydalanadi. Har bir tilning tuzilishi bu tildagi mavjud fonema, morfema, sintaktik qurilmalar yig'indisi va ushbu vositalarning o'zaro munosabatidan iboratdir.

Til qurilishining o'ziga xos shakllanishi jarayonida tilning ijtimoiy tabaqalanishi vujudga keladi. Ijtimoiy tabaqalanish natijasida mavjud tilning jamiyat uchun xizmati bir necha yo'nalishda bo'ladi.

1. Hududiy tabaqalanish. Umumxalq tilining son jihatdan nisbatan kam bo'lgan hududiy, sotsial va professional jihatdan umumiylikka ega bo'lgan kishilar foydalanadigan ko'rinishi dialekt deb yuritiladi. Har bir dialekt o'z til sistemasi va strukturasiga ega.

2. Nutq jarayoni kimga qaratilganligi bilan farqlanadi. Shunga ko'ra u dialog, monolog va polilog shaklida bo'ladi.

Dialog - nutq tuzilishining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, sotsial nutqiy aloqalarning tabiiy shakllaridan hisoblanadi. Dialog, akad L.V.Shcherba fikri bilan aytganda, «shunday ustaxonaki, unda tilning har turli o'zgarishlari quyiladi va yig'iladi».

Katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan nutqiy aloqaning dialog shakli keng tarqalgan. Chunki bu shakl orqali millionlab kishilar ijtimoiy turmushda - oilada, ishlab chiqarish jarayonida, jamoat joylarida fikr almashadi.

So'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq monolog hisoblanadi.

Ko'p kishining o'zaro suhbatlari polilog sanaladi.

3. Adabiy tilning ifodalanish jihatidan tabaqalanishi. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli adabiy til hisoblanadi. Adabiy tilning ikki ko'rinishi bor: 1) yozma ko'rinish, 2) og'zaki ko'rinish.

4. Tilning ijtimoiy jamoa faoliyatiga ko'ra tabaqalanishi. Tilning inson faoliyatining u yoki bu sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratiladigan uslublari vazifaviy uslublari

sanaladi: badiiy uslub, soʻzlashuv uslubi, publitsistik uslub, ilmiy uslub, rasmiy-ish uslubi.

5. Muayyan ijtimoiy guruh kishilari foydalanadigan til sotsial dialekt sanaladi. Bunday til jargon va argo deb ataladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilning ijtimoiy jamoa faoliyatiga koʻra tabaqalanishi deganda nimani tushunasiz?

2. Muayyan ijtimoiy guruh kishilari foydalanadigan til nima deyiladi?

3. Adabiy tilning qanday koʻrinishlari bor?

4. Koʻp kishining oʻzaro suhbatida nima deyiladi?

5. Pijin tillari deganda qanday tillar nazarda tutiladi?

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. –B.127-135.

2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. –B.75-76.

3. Aliqulov Z. Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. – Samarqand: SamDU nashri, 2010. –B.71-75.

4. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1981. –B. 211-220

5. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007. – B.22-29.

6. Oʻrinboev B., Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. Maʼruzalar matni. – Samarqand, 2004. –B.149-158.

(3- mavzuga ilova)

Millatlararo va xalqaro aloqa tillari

Reja:

1. Millatlararo va xalqaro aloqa tillari

2. Xalqaro sunʼiy tillar.

Dunyoda uch mingdan ortiq til mavjud boʻlsa, (“Tilimizning tilla sandigʻi” asarida Hindistondagi koro tili 2010 yilda “Nationai Giographik” jamiyati tomonidan tashkil qilingan ekspeditsiya aniqlagan 6909 til ekanligi aytib oʻtilgan)

shundan 300 ga yaqini o'z yozuviga ega. Bundan 200 ga yaqini bir milliondan ortiq aholisi bo'lgan xalqlar uchun xizmat qiladi. Bular ichida xitoy, ingliz, rus, ispan, hindi va urdu, yapon, nemis, arab, portugal, fransuz kabi tillar jahonda eng ko'p tarqalgan tillar hisoblanadi. Lekin bu tillarda gaplashuvchi kishilarning soni shu millat a'zolarining soniga to'g'ri kelavermaydi. Masalan, xitoy tilida, asosan, shu millat vakillari so'zlashadi. Ingliz, ispan, rus, fransuz kabi tillarda esa shu millatlardan tashqari ko'pgina boshqa millat vakillari ham gaplashadi. Shulardan fransuz tilida 30 million odam gaplashadi, 200 million odam erkin fikr yurita oladi. Fransiyadan tashqari Monako, Marokash, Jazoir, Tunis, Kot-D'Ivuar, Kongo Demokratik Respublikasi, Nigeriya, Gaiti, Senegal, Mavrikiy kabi Markaziy va Sharqiy Afrika davlatlari, Laos, Kambodja, Vetnam kabi Osiyo mamlakatlari, Meksika, Kanada, Belgiya, Shvetsariya, Lyuksemburgda yashovchi fransuz aholisi (ularda fransuz tili rasmiy deb tan olingan) shu tilde gaplashishadi. Frankofoniya (aholisi fransuz tilida gaplashadigan davlatlar uyushmasi) 56 davlatni a'zo va 14 davlatni kuzatuvchi maqomida o'z atrofiga uyushtirgan.

Jahonda eng ko'p tarqalgan tillar bilan bir qatorda kam tarqalgan tillar ham mavjud bo'lib, bular qabila yoki elat a'zolarining aloqa vositasi hisoblanadi. Masalan, Dog'istonda botlix tili Botlix va Miarsu ovullarida, ginux tili Sintin rayonining Ginux ovulida yashovchi aholining tili hisoblanadi. Ginuxlar hammasi bo'lib 200 kishi atrofida. Bularning ko'pchiligi avar tilini ham biladi.

Tilning ijtimoiy mohiyati uning yozma adabiy shaklga ega bo'lishi bilan kengayib boradi. Bevosita aloqa bilan bir qatorda turli adabiyotlar, vaqtli matbuot, radio va televidenie, internet kabilar ham tilning tarqalishida asosiy faktorlardan hisoblanadi. Tilning tarqalishi esa uning qo'shimcha vazifa bajarishiga olib keladi. Mana shu asosda xalqaro aloqa tillari yuzaga keladi.

Tilshunoslik bu tipdagi jahon tillaridan boshqa quyidagi tip tillarning mavjudligini ham qayd qiladi.

Xitoy portlarida «pijin-ingliz» tili port xodimlari va boshqa davlatlardan kelgan suv kemalari matroslari orasida aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu til buzib aytiladigan ingliz tili leksikasi bilan xitoy grammatikasidan tashkil topgan. Masalan, ingliz tilida pigeon so‘zi «kaptar» ma’nosida ishlatiladi, «pijin-ingliz» tilida esa bu so‘z har qanday par-randani anglatadi. Magu so‘zi ingliz tilida ism — atoqli ot bo‘lib, ayollarga ko‘p qo‘yiladi, «pijin-ingliz»da esa bu so‘z umuman ayollar ma’nosida qo‘llanadi va hokazo.

O‘rta dengiz portlarida «sabir» tili «xalqaro til» vazifasini o‘taydi. Bu til fransuz, ispan, italyan, grek va arab tillari elementlaridan tashkil topgan.

Tarixda ayrim tillarni ijtimoiy hayotning ba’zi sohalarida xalqaro aloqa tili vazifasida qo‘llash hollari bo‘lgan. Masalan, O‘rta asrlarda Yevropada fan tili sifatida lotin tili qo‘llangan. Sharqda esa bu vazifani arab, fors tillari bajargan.

Arab va fors tillari mahalliy tillar, jumladan, o‘zbek tili lug‘at sostavida, lotin tili ilmiy terminologiyada chuqur iz qoldirdi. Ilmiy adabiyotlarda lotincha terminlarning ko‘plab uchrashi ham shu bilan izohlanadi. Hozirgi vaqtda botanika, zoologiya, meditsina, farmakologiya fanlarida lotincha nomlar xalqaro nomenklatura vazifasini o‘taydi.

Xalqaro sun’iy tillar. Azaldan olimlar xalqaro aloqa vositasi sifatida sun’iy til yaratish to‘g‘risida bosh qotirib keladilar. Biroq bunday tillar faqat XIX asr oxirida paydo bo‘la boshladi.

1880 yilda Germaniyada I. M. Shleyer tomonidan yaratilgan «volyapyuk» nomli tilning proyeksi e’lon qilindi. 1887 yilda esa Polshada vrach-poliglot Zamengof tomonidan yaratilgan «esperanto» tili paydo bo‘ldi. U tez orada turli mamlakatlarga tarqaldi. Dastlab bu til bilan marka yig‘uvchilar (filatelistlar), numezmatlar (tanga pul yig‘uvchilar), sportsmenlar, kommersantlar, keyinchalik filosoflar, filologlar va hattoki yozuvchilar ham qiziqib qoldilar. Esperanto tili darsliklari ko‘plab nashr qilina boshladi. Ba’zi adabiy asarlar bu tilga

tarjima qilindi, ba'zi yozuvchilar esa bu tilda adabiy asarlar ham yaratdilar. Lekin bu asarlarning badiiy qiymati yo'q darajada, chunki sun'iy tillar tabiiy tillardan farqli o'laroq stilistik vositalardan xolidir.

Esperanto 16 grammatik qoida va qirqqa yaqin suffiks va predlogga ega. Har bir so'z qanday yozilsa, shunday o'qiladi. Har bir fonemaga bir latin harfi mos keladi. Urg'u doimo so'zning oxirgi bo'g'inidan oldingisiga tushadi: So'z o'zgarishi, forma yasalishi, so'z yasalishi agglyutinatsiya usuli bilan amalga oshiriladi. So'z turkumlari forma yasovchi suffikslar orqali ajratiladi. Masalan, so'z o bilan tugasa (patro — ota), ot turkumiga, a bilan tugasa (pelica — baxtli), sifat turkumiga, e bilan tugasa (patre — otalarcha), ravish turkumiga xos bo'ladi. Ko'plik j suffiksi, kelishiklardan tushum suffiksi, qolganlari predlog orqali ko'rsatiladi. So'z yasalishi suffikslar va pristavkalar orqali amalga oshiriladi. Bir o'zakdan 20 dan tortib 60 gacha so'z yasash mumkin.

Xalqaro sun'iy til o'z sistemasining ba'zi afzalliklariga qaramay, kishilikning polifunksional tili vazifasini bajara olmaydi. U tabiiy milliy tillarga nisbatan ikkilamchi, yordamchidir. Bu tilda gaplashuvchilarning soni chegaralangan. Bulardan tashqari, sun'iy tillarning asosiy kamchiligi — ularning rivojlanmasligidir; bu tilni ona tili deb hisoblaydigan jamiyatning yo'qligidir. Agar tabiiy tillar tabiiy ravishda evolyutsiya yo'li bilan doimo rivojlanib tursa, sun'iy tillardagi hamma yangiliklar sun'iy ravishda amalga oshiriladi. Ana shu sabablarga ko'ra bunday tillar hech qachon xalqaro til vazifasini o'tay olmaydi. Tabiiy tillar ijtimoiy jihatdan har qanday sun'iy tillardan o'z xususiyatlari bilan ustun turadi. Birinchidan, xalqaro aloqaning tabiiy tillarini yuz millionlab kishilar yoshlikdan hech qanday qo'shimcha tadbirlarsiz egallab boradi, ikkinchidan, bu tillarda asrlar davomida yaratilgan adabiyotlar mavjud, uchinchidan, bu tillar boshlang'ich, o'rta, oliy maktablar tili bo'lib, bu o'quv yurtlari ko'p asrlik traditsiyalarga ega, to'rtinchidan, bu tillarda boshqa

mamlakatlarda ham million-million kishilar aloqa qiladi, beshinchidan, jamiyat bu tillarni o'qitishda ma'lum tajriba orttirdi, bu tillarda ko'plab o'quv va maxsus adabiyotlar nashr qilingan. Bunday tillarning ijtimoiy bazasi ancha keng bo'lib, u yuz millionlab kishilarni o'zida birlashtiradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. O'rta dengiz portlarida qanday til "xalqaro til" vazifasini o'taydi?
2. Xalqaro sun'iy tillarga kiradigan tillarni ayting.
3. "Esperanto" tili kim tomonidan yaratilgan?
4. Ginix ovulida yashovchi aholining tili nima deb nomlanadi?

Adabiyotlar:

1. Aliqulov Z. Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. – Samarqand: SamDU nashri, 2010. –B.71-75.
2. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1981. –B. 217-220.
3. Ahmad A'zam. Til nomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2013. –B.56.

Quyidagi fikrlarga e'tibor bering.

Esperanto – xalqaro muloqot uchun atayin yaratilgan sun'iy til. Unda tabiiy tildagi kabi xilma-xil vazifalar va, eng muhimi, millatga mansublik yo'q, shuning uchun uning "hukmronligi" biron millatning ko'nliga g'ulu solmaydi. Bu til yaratilishidanoq faqat kommunikatsiya – aloqa qilish uchun moslangan. (N.Mahmudov).

Dunyo tili –xalqaro kengashlarda, simpoziumlarda ishlatiluvchi, Birlashgan Millatlar Tashkilotida rasmiy tan olingan til. Bunga ingliz, xitoy, fransuz, arab tillari kiradi. (A.Abduazizov).

Millat paydo bo'lishi bilan birga milliy til ham vujudga keladi. Milliy tilning yagonaligi xalq (elat) tilining tadrijiy taraqqiyoti orqasida shakllanadi. (O.Azizov).

Shevalar tilning ildizlari, to'g'rirog'i, buloqlari; ular ham qurib qolmasligi lozim. (A.A'zam).

4-mavzu: Til va yozuv

Reja:

1. Til va yozuv.
2. Yozuv turlari va taraqqiyot bosqichlari.
3. O'lkamizda qo'llanilgan yozuvlar.

Tayanch so'z va iboralar: yozuv, piktografik yozuv, iyeroglifik yozuv, mix(qoziq) yozuv, fonetik yozuv, alifbe, finikiya, lotin, krill, oromiy, sug'd, baqtriy, xorazmiy, turk-run, arab, uyg'ur.

1.Til va yozuv.Til tarixini o'rganishda yozuv asosiy manbadir. Yozuv o'z taraqqiyotida og'zaki nutq bilan bir qatorda, ikkinchi aloqa vositasi bo'lib sanaladi. Yozuvning paydo bo'lishi, takomillashuvi til tarixi bilan, uning rivojlanishi bilan chambarchas bog'langandir. Biroq yozuv jonli so'zlashuv tiliga qaraganda ancha keyin paydo bo'lgan. Mutaxassislarning aniqlashiga ko'ra, til 400-500 ming yillar ilgari paydo bo'lgan bo'lsa, yozuvning yuzaga kelganiga atigi 4-5 ming yil bo'lgan. Yozuv ham, til singari, jamiyatdagi turli aloqa ehtiyojlari natijasida vujudga kelgan.Yozuvning ixtiro qilinishi insoniyat madaniy taraqqiyotining chin ma'nodagi kashfiyoti bo'lib, uning uchun vaqt va masofaning ahamiyatga ega emasligi, bir necha ming yillik ko'hna tarix va adabiyot durdonalarining saqlanib qolganligi, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy voqea-hodisalarning, axborotlarning barcha-barchasi avloldardan-avlodlarga, xalqlardan xalqlarga, qit'alardan qit'alarga yozuv orqali yetib borgani, borishi uning tengsiz qudratidan dalolat beradi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida kishilarda o'z fikr-istaklarini turli belgilar orqali bildirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Kishilar alohida belgilar orqali fikrlarini bildirishga, o'z fikr va istaklarini fonetik yozuv orqali ifodalashga birdaniga erishmaganlar. Yozuv o'zini taraqqiyotida turli bosqinchilarni bosib o'tgan. Arxeologik tekshirishlardan, etnografik materiallardan ma'lum bo'lishicha, qadimgi davrlarda insonlar tog' qoyalariga, g'or devorlariga ovchilikka doir turli voqealarning rasmlarini chizib, o'zlarining fikr va istaklarini

bildirishgan. Ana shunday turli voqealarni bildiradigan rasmlar piktografik yozuv deb ataladi. Piktografik belgilari tildagi tovushlarni ifodalamay, balki kichik bir voqeani yoki tushunchani yaxlit holda bildiradi. Shuning uchun biror tushuncha yoki voqeani tasvirlagan piktografik yozuv alohida soʻzlarga boʻlinmaydi.

Yozuvning keyingi taraqqiyoti bosqinchilariga piktografik yozuvdan foydalanuvchi xalqlar jamiyat tarixi taraqqiyoti jararoyonida tadrijiy holda bu yozuvdan ayrim soʻzlarni bildiradigan belgilarni qoʻllashda oʻta boshlaganlar. Bu bosqichda ham alohida soʻzni bildiruvchi ayrim rasmlar oʻzi ifodalangan buyum va narsaning shaklidan unchalik farq qilmagan. Keyinchalik uzoq zamonlar oʻtib borar ekan, tez yoyish ehtiyoji tugʻilgan va shunga muvofiq yozuv qurollari: bigiz, bambuk, qogʻoz, qora siyoh vujudga kelib, ulardan foydalanishi natijasida ayrim rasmlarning oʻzlari ifodalagan narsaga, buyumning shakliga oʻxshashligi asta-sekin yoʻqola boradi. Bu hol esa yozuvda qulayliklar tugʻdiradi. Yozma rasmlarning, yaʼni piktografik yozuvning ayrim soʻzlarni bildiradigan alohida belgilarga aylangan shakli iyerografik yozuv deb ataladi. Iyeroglifik yozuv eng avval Xitoy bilan Misrda paydo boʻlgan. Bu yozuv alifbe yozuvining yaratilishi uchun zamin tayyorlab berdi.

Yozuv taraqqiyotida boʻgʻinli yozuv ancha muhim oʻrinni egallaydi. Boʻgʻinli yozuvda ham bir boʻgʻinni, butun bir soʻzni va bir tovushni ifodalaydigan belgilar qoʻllanilgan. Ossuriya va Vavilon mix(qoziq) yozuv ana shunday yozuvlardan boʻlgan. Bu yozuvda ayrim belgilar bir tovushni yoki butun bir boʻgʻinni, baʼzi belgilar esa butun bir soʻzni ifodalagan. Boʻgʻinli yozuvning eng yaxshi namunalaridan biri qadimgi hind yozuvi boʻlgan devonagaridir. Bogʻinli yozuv iyeroglif yozuvga qaraganda ancha qulay yozuvdir.

Dastlabki alifbeli yozuv Nil daryosi vodiysiga bostirib kelgan giksoslar tomonidan yaratilgan. Giksoslar misrliklarning atoqli ismlarini yozishdagi tajribasidan foydalanganlar: ular

misrliklarning iyeroglif yozuvlaridan yigirmatasini olib, shular orqali o'z tilining unli va undosh tovushlarni ifodalaydigan alifbeni yaratganlar. Alifbe so'zi eng avval giksoslar qo'llashgan bo'lib, hokiz degan ma'noni bildirgan, a tovushini ifodalovchi belgi dastlab hokizning boshiga o'xshagan. *Be* aslida giksoslacha *bet* bo'lib, *uy* degan ma'noni ifoda etgan. Ana shu ikki so'zdan alifbe so'zi paydo bo'lgan. Eramizdan bir yarim ming yil ilgari giksoslar alifbesini finikiyaliklar birmuncha o'zgartirib, o'z tillarining tovushlariga moslashtirib olishgan. Finikiyaliklarning o'sha vaqtda O'rta dengiz bo'yidagi mamlakatlar bilan bo'lgan savdo-sotiq ishlari ancha taraqqiy etgan edi. Shuning uchun ham finikiyaliklarning yozuvi boshqa xalqlar orasida tez tarqalib ketgan. O'sha davrda ko'p mamlakatlar finikiyaliklar yozuvidan foydalanib, o'z yozuvlarini yaratgan.

Shunday qilib, dunyodagi ko'p tillarning tovushlarini ifodalovchi alifbe, ya'ni fonetik yozuvlar shu finikiyaliklarning yozuvi asosida vujudga kelgan. Finikiyalilarning alifbesi, asosan, undosh tovushlarni ifodalagan. Bu alifbe uch katta tarmoqqa bo'linib ketgan: birinchisi, Aramey-Suriya tarmog'i bo'lib, bu tarmoq Sharqqa qarab tarqalgan; ikkinchisi, Janubiy Arabiston tarmog'i bo'lib, u Janubga qarab tarqalgan; uchinchisi, yunon-Yevropa tarmog'i bo'lib, u G'arbga qarab tarqalgandir. Shu tarzda bugungi kun yozuvlari lotin, krill, hind va arab yozuvlari shakllangan. Lotin yozuvi 12-asrga kelib hozirgi ko'rinishni olgan. Krill alifbosi 17-asrda aka-uka Krill va Mefodiylar tomonidan mukammallashtirilib, hozirgi shaklni olgan.

O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi 6-4-asrlarda oromey yozuvi asosida xorazmiy, baqtriy, sug'd, sak va massagetlar yozuvi shakllangan bo'lib, bu bevosita Katta Xorazm, Baqtriya, So'g'iyona kabi ilk davlatlarning, saklar, massagetlar birlashmalarining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Eramizning 6-7 asrlarida turk hoqonligi tashkil topib, bu hoqonlikning yozuvi – turk-run yozuvi shakllandi. Turk-run yozuviga oid

yodgorliklar dastlab Urxun-Yenisey daryolari boʻyidan topilgani sababli, bu yozuv Urxun-Yenisey yozuvlari deb ataldi. Bu yozuv 10-asrgacha turkiy xalqlar orasida qoʻllanildi. Bugungu kunda bu yozuvda yozilgan yetti yuzga yaqin namunalari mavjud. Eramizning 7-asrlaridan to 15 asrgacha bizning oʻlkada uygʻur yozuvi qoʻllanildi. Bu yozuv sugʻd yozuvi asosida shakllangan boʻlib, arab yozuvi bilan bir davrda teng isteʼmolda boʻlgan yozuvdir. Oʻlkamizda eng koʻp qoʻllanilgan yozuv arab yozuvi boʻlib, 8-asrdan to 1926-yilga qadar qoʻllanilgan. 1929-yildan 1940 yilga qadar lotin yozuvi va 1940- yildan krill yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosiga oʻtilgan. 1993-yili 2- sentabrda lotin yozuviga asoslangan oʻzbek yozuviga oʻtilgan. Bu yozuvda dastlab oʻttiz bitta harf va bir tutuq belgisi boʻlib, 1995-yili 5-6-mayda yozuvga oʻzgartirishlar kiritilib, 26 harf, 3 ta harfiy birikma va bir tutuq belgisiga almashtirilgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Turli voqealarni bildiradigan rasmlar qanday yozuv sanaladi?
2. Alifbe soʻzi eng avval kimlar qoʻllashgan?
3. Boʻgʻinli yozuvning eng yaxshi namunalaridan birini ayting.
4. Iyeroglifik yozuv eng avval qayerda paydo boʻlgan?

Adabiyotlar:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. –B.40-49.
2. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1981. –B.71-85.

Quyidagi fikrlarga eʼtibor bering.

Agar insondagi soʻzlash quvvati hamma joyga shamol kabi yoyiluvchi boʻlmaganda edi va zamonlardan zamonlarga nafaslar singari oʻtuvchi xat yozish sanʼatini keltirib chiqarmaganda edi, oʻtmish zamonning xabarini, ayniqsa, uzoq zamonlar oʻtganda hozirgi zamon tillariga qanday koʻchirib boʻlar edi? (Abu Rayhon Beruniy)

Har qanday yozuv tarixda, eng avvalo, muayyan diniy mafkuraning ifodachisidir. Davlatchilik va madaniyatni ifodalashni esa u faqat keyin o'z ustiga olgan. Eng yangi dinlarning barchasi o'z yozuvlari bilan dunyoga yoyilgan. Yahudiylik – qadimgi yahudiy yozuvi bilan, xristianlik – yunon, lotin yozuvi bilan, buddaviylik – qadimgi hind yozuvi bilan, zardushtiylik – avesto yozuvi bilan, islom – arab yozuvi bilan. (O'. Sulaymonov).

5-mavzu: Til tizimi va tuzilishi. Til tizimi birliklari.

Til sathlari tushunchasi

Reja:

1. Til tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Til birliklari orasidagi munosabat.
3. Til tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Til tizimi birliklari. Til sathlari tushunchasi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar: *til tizimi (sistema), tizim imkoniyatlari, ichki qonuniyatlar, tizimning sathiy birliklari, birliklar munosabati, paradigmatic, sintagmatic, ierarxik, til tuzilishi (struktura), tuzilish belgilari.*

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, til kishilik jamiyatida bajaradigan funksiyasiga ko'ra asosiy aloqa quroli, tafakkur vositasi; o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ichki qurilish nuqtai nazaridan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir. Shuning uchun ham til ichki qurilishini o'rganishda sistema va struktura tushunchalari keng qo'llaniladi.

Umuman olganda sistema nima? Uning strukturadan farqi nimada? Dastlab sistema (*tizim*) va struktura (*tuzilish*) atamalari sinonim sifatida ishlatilgan. Lekin keyinchalik tizim nazariyasining rivojlanishi va aniq kuzatishlar bu tushunchalarni qat'iy farqlash kerak, degan xulosaga olib keladi. Chunki tizim atamasi obyektни butun holda ifodalaydi.

Tuzilish atamasi esa aloqa va munosabatning qanday tuzilganligini izohlaydi.

Tilning imkoniyatlari uning reallashgan, amalda qo'llaniluvchi holatidan doimo ortiq va keng bo'ladi. Har tildagi mana shunday boy imkoniyatlar bu tilning umumiy lisoniy vositalar tizimini tashkil etadi.

Til tizimi bu tilga oid nutq ko'rinishi reallashgan, amalda qo'llanishda bo'lgan vositalardangina emas, balki bu til tizimida yuzaga kelishi, ishga solinishi mumkin bo'lgan qo'shimcha, zahiraviy imkoniyatlar yig'indisidan iboratdir. Shuning uchun til tizimi bu tildagi zahiraviy imkoniyatlar sistemasi hamdir. Til tizimi quyidagilardan iborat bo'ladi: 1) har bir tilda qo'llangan imkoniyatlar; 2) amalda mavjud, qo'llanayotgan imkoniyatlar; 3) kelajakda qo'llanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar majmui.

Til tizimi o'z xarakteriga ko'ra umumiy va mavhum hodisadir. Til tizimining bu xususiyati nutqqa nisbatan olinganda ravshan ko'rinadi. Tizim tarixan shakllangan, qaror topgan umumiy-mavhum, doimiy nutq sanaladi. Tizimning nutqiy holatga va aksincha, nutqiy jarayonning til tizimiga munosabati tilning aloqa vositasi sifatida o'ziga xosligini tashkil qiladi.

Til tizimi o'z ichki qonuniyatlariga ega. Tizim - bu odatda bir tildagi va o'zaro shartlangan elementlar birligidan iborat. Bunday unsurlar, odatda, bir sathdagi hodisaga mansub bo'ladi. Tilning bir sektori yoki qavatidagi imkoniyat va vositalarning o'zaro bog'liqligi aslida tilning o'zi tizimiy hodisa ekani bilan izohlanadi. Tildagi tizimiylik undagi bir xil unsurlarning o'zaro bog'liqligi va ular yig'indisining tildagi barcha qo'llanishlar, yasallishlar imkoniyatini tashkil etishida yorqin ko'rinadi. Demak, til tizimi - bu til birliklari va qismlarining ichki bog'liqligidir. Tilning har bir sathiy birliklari tizimga butunning bir bo'lagi sifatida kiradi va aslida u til tizimidagi boshqa birliklar, qismlar bilan bevosita yoki til kategoriyalari orqali bilvosita bog'langan, aloqada bo'ladi. Shunga ko'ra, til tizimi

murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Mana shu xususiyat tilning tuzilishiga ham, vazifasiga ham aloqadordir.

Til tizimga ko‘ra murakkab hodisadir. Tilning bir-biri bilan uzviy bog‘langan tovush tizimi, so‘z yasalihi, lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo‘lib, ular birgalikda bir butunlikni tashkil etadi.

Tilning tovushlari so‘zlar va grammatik shakllarni hosil qilishda muhim moddiy baza bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tovushlarsiz tilning o‘zi ham bo‘lmas edi: inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o‘z tovushlar tizimi mavjud. Lug‘at tarkibi tilning so‘z xazinasidir. Lug‘at boyligidagi so‘z va iboralar til uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. Fikrni ifoda etish uchun shakllangan gaplar ana shu so‘zlardan, so‘zlarning o‘zaro birikuvidan tashkil topadi.

Tilning birliklari, ya‘ni tovushlar tizimi, morfemika, lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi o‘zaro shu qadar mahkam bog‘langanki, biri ikkinchisining bo‘lishini talab qiladi: so‘zlar tovushlarning bo‘lishini talab qilsa, grammatik qurilish lug‘at tarkibini talab etadi.

Har bir konkret til o‘zining ana shu tarkibiy qismlari, ya‘ni birliklari bilan bir butun tizimni tashkil etadi. Tizim bir-biriga bo‘ysundirilgan va umumiy qonuniyatlari, tildagi shakl va ma‘noning bog‘lanishini taqozo etuvchi birliklarning yig‘indisidir. Masalan, sintagmalar tizimi, (so‘z birikmasi va gap sintagmasining kichik tizimi), morfemalar tizimi (o‘zak va affiks tizimi), fonetik tizim (unli va undoshlar kichik tizimi) kabi.

Til tizimi uning birliklari orasidagi mustahkam aloqaga asoslanadi. Til birliklari orasidagi aloqaga qarab til tizimi uch guruhga bo‘linadi:

1) paradigmatic aloqa; 2) sintagmatic aloqa; 3) ierarxik aloqa.

Paradigmatic aloqa - bu tanlab, saylab olish munosabatidir. U til birliklari orasidagi o‘xshashlik va farqlanishga asoslangan. Masalan, paradigmatic aloqada

hamma kelishik shakllari bir soʻz orqali turlanadi: *kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan* kabi.

Sintagmatik aloqa - bu qator joylashgan birliklar munosabatidir. Sintagmatik aloqada fonemalarning qaysi oʻrinda uchrashi, soʻz, morfema va boʻgʻindagi taqsimoti oʻrganiladi. Sintagmatikada fonemalarni nutqda namoyon etuvchi tovushlar farqlanadi. Morfema va soʻzlar nutq tovushlari orqali shakllanadi. Chunki nutq tovushlari inson tilining moddiy bazasidir. Har bir tilga xos nutq tovushlari maʼlum bir tizimi asosida birikib, predmet, hodisa, harakat va tushunchalarning nomlarini, turli grammatik qoidalarni ifodalab beradi.

Iyerarxik aloqada oddiy til birliklari murakkablasha boradi. Fonemaning maʼlum qoidalar asosida birikuvi morfemaning, morfema esa leksemaning hosil boʻlishiga olib keladi. Bu aloqa maʼlum darajada tarixiylik mezoniga ega, yaʼni taraqqiyot jarayonida til tizimidagi fonema, morfema, leksema biri ikkinchisiga oʻtishi mumkin. Eng kichik grammatik birlik morfema boʻlib, morfemalardan soʻzlar yasaladi, soʻzlar soʻz birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. Gapdan katta birliklar ham mavjud: murakkab sintaktik butunlik, abzats va matn. Til tizimi til birliklarining bir butunligidan iboratdir.

Tilning tuzilishi tomoni ham bor. Til tuzilishini til tizimi va til meʼyorida farqlash lozim. Til tuzilishi muayyan davrda qoʻllanayotgan real tizimlardir. Til tuzilishi tildagi koʻpqirrali unsurlarning bir butunlik doirasidagi birligidir. Til tuzilishida til tizimidagi imkoniyatlar amalga oshadi. Masalan, oʻzbek tilining tuzilishi bu tildagi mavjud fonema, morfema, sintaktik qurilmalar yigʻindisi va ushbu vositalarning oʻzaro munosabatidan iboratdir.

Til tuzilishi har qanday tilning asosi boʻlib, u nutqda turli darajada yuzaga chiqadi, namoyon boʻladi. Konkret nutqiy jarayonlarda aniq namoyon buluvchi hodisa tuzilishdir.

Til tuzilishi konkret til doirasida olib qaralsa, bu til sathlarida turli darajadagi lisoniy vositalarni bir butunlikka birlashtirib turuvchi o'qdir. Til qurilishi turli tillarning o'zaro farqlanishini belgilovchi va xarakterlovchi hodisadir. Tizim har bir til uchun o'ziga xos bo'lsa, til qurilishi konkret til doirasida o'zgarib, turlanib turuvchi xususiyatga egadir. Masalan, o'zbek tili arab, ingliz tilidan o'z tuzilishiga ko'ra farqlanadi.

Til tuzilishi o'z mohiyatiga ko'ra, aslida oliy darajadagi umumlashtirish, mavhumlash (abstraksiya) natijasidir. Me'yoriy til tuzilishiga nisbatan quyi darajadagi mavhumlashdir. Til tuzilishi tizim va me'yorga nisbatan olinganda oliy darajada shakllanish natijasidir. Shu tufayli ham til tuzilishi har qanday tilning asosini tashkil etadi.

Til sathlari tushunchasi. Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o'rganishdir. Har qanday til fonetik tuzilishi, grammatik qurilish va lug'at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib, butun tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog'langan tizimni tashkil etadi. Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Til tizimini tashkil etuvchi birliklarning o'zaro munosabati va bog'lanish qonuniyatlari murakkab hamda ko'p qirralidir. Garchi til yaxlit tizim bo'lsa-da, bu tizim o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan, til tizimining tarkibiy qismlari hisoblangan sathlar birligan iborat. Har bir sathning o'z birliklari va tushunchalari bo'lib, ular birbiridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug'at sathidan, lug'at sathi grammatik sathdan farqlanadi. Ammo, ushbu sathlar o'zaro bog'liq ravishda butun til tizimini tashkil etadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik sath.
2. Lug'at sathi.
3. Grammatik sath.

Fonetik-fonologik sath.

Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o'rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar, albatta, tovushlar tizimida o'z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o'rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o'z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko'ra murakkab hodisadir. Inson nutqining tovushlari fizik xususiyatlariga ko'ra tabiatda paydo bo'ladigan tovushlarning bir turidir. Shuning uchun tovushlar tizimini o'rganishda akustik nuqtayi nazardan ham yondashiladi. Ammo, inson foydalanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o'laroq, kishining nerv sistemasi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun, tovushlar fiziologik nuqtayi nazardan ham o'rganiladi. Nihoyat, tovushlarni tildagi bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazaridan ham o'rganish mumkin, chunki tovushlar tilda o'z holicha mavjud bo'lmaydi. Ular so'zlarni yasashda va fikr almashish vositasini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. Tovushlarning fizik va biologik xususiyatlarini fonetika fani o'rganadi. Tovushlarning til tizimida bajaradigan funksiyalarini esa fonologiya o'rganadi. Fonetikaning bir necha ko'rinishlari bor: nazariy fonetika, amaliy fonetika, segmental, supersegmental fonetika va fonologiya. Fonetikaning to'rtinchi asosiy sohasi hisoblanmish fonologiya alohida fan sifatida qaraladi.

Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo'lgan morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog'liqdir. Nutq fonetik jihatdan fraza, takt, bo'g'in va nutq tovushlariga ajraladi. Fraza nutqning eng katta fonetik birligi bo'lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o'ziga xos ohangga ega bo'ladi. Frazalar taktdan tashkil topgan bo'ladi. Frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urg'u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo'g'inning yig'indisiga takt deyiladi. Frazada nechta urg'u bo'lsa shuncha takt bo'ladi.

Takt bo‘g‘inlardan tashkil topadi. Bo‘g‘in bir yoki bir nechta tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo‘g‘in ta’rifiga aloqador bir qancha nazariya mavjud. Shulardan ikkitasi: fonologik bo‘g‘in nazariyasi va fonetik bo‘g‘in nazariyasi keng tarqalgan. Tovushlar fonetika birligi sifatida o‘rganilganda “nutq tovushlari” yoki “fonlar” deb yuritiladi. “Fon” hozirgi tilshunoslikda keng tarqalgan atama bo‘lib, nutqning eng kichik, ma’no anglatmaydigan birligidir.

Nutq tovushlarining o‘rganilishidagi aspektlardan biri fonologiya deb yuritiladi. Nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini fonologiya o‘rganadi. Fonologiyaning o‘rganish manbai fonemadir. Fonema so‘z, so‘z shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, ma’no farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan til birligidir. Masalan, *tup-tub; quy-qo‘y; sut-sud* so‘zlari fonemalar yordamida farqlanadi. Tildagi barcha fonemalar bir-biriga nisbatan ma’lum ko‘lamda bo‘ladi. Fonemalarning bog‘lanishi, o‘zaro munosabati fonologik tizimni tashkil etadi.

Lug‘at sathi

Tilning lug‘at sathi tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning yig‘indisidan iborat. Lug‘at sathi tilning fonetik-fonologik va grammatik sathlaridan har doim o‘zgarib va rivojlanib turishi bilan ajralib, farqlanib turadi. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni lug‘at sathining doimiy o‘zgarib turishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, tilning lug‘at sathi paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi doirasi jihatdan bir-biridan farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi. Lug‘at sathining asosiy birligi hisoblangan so‘z yordamida kishilar predmet va hodisalarni ifodalaydilar; gapda esa so‘zlar o‘zaro birikib fikr ifodalash imkoniyatini yaratib beradi. Lug‘at sathini leksikologiya o‘rganadi. So‘zning ta’rifi, so‘z va predmet, so‘z va tushuncha, lug‘atning o‘zgarishi, so‘zlarning bir-biri bilan munosabati, lug‘atning qatlamlari kabi muammolar leksikologiya o‘rganadigan asosiy masalalar hisoblanadi.

Soʻzlarning boshlangʻich maʼnosi va shaklida boʻlgan oʻzgarishlarni etimologiya, lugʻat va uning tuzilishini leksikografiya, soʻzning maʼnosi va uning taraqqiyotini semasiologiya oʻrganadi. Frazologizmlar leksikologiya bilan bogʻliq holda oʻrganiladi.

Tilning lugʻat tarkibi bir nechta nuqtayi nazardan oʻrganilishi mumkin. Tilning lugʻat qatlamini tarixiylik nuqtayi nazaridan oʻz va oʻzlashgan soʻzlarga ajratish mumkin. Har bir tilda oʻz qatlam soʻzlari bilan bir qatorda oʻzlashgan qatlam soʻzlari ham uchraydiki, bu tilning mavqeyi, ijtimoiy-tarixiy jarayon, xalqlar va tillar oʻrtasidagi turli munosabatlar taʼsiri bilan izohlanadi. Lugʻat qatlamining maʼlum qismi sheva soʻzlaridan iborat. Sheva soʻzlari asosiy aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi. Sheva soʻzlarining adabiy til lugʻatini boyitishda alohida oʻrni bor. Tilning lugʻat tarkibi isteʼmol darajasi nuqtayi nazaridan ham turlichadir. Bu jihatdan faol va kam ishlatiladigan soʻzlar farqlanadi. Bu borada quyiroqda, “Tilshunoslik va uning boʻlimlari” da (oʻzbek tili misolida) batafsil toʻxtalamiz.

Tilning lugʻat boyligini oshiruvchi asosiy manba soʻz yasalishi, shevalardan soʻz olish, soʻzning maʼno taraqqiyotidagi oʻzgarishlar va maʼno koʻchirishlar hisoblanadi.

Grammatik sath

Har bir tilning grammatik sathi soʻzlarning grammatik formasi, soʻz birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham oʻz birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik morfema boʻlib, morfemalardan soʻzlar yasaladi, soʻzlar esa oʻz navbatida soʻz birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. Gap grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: murakkab sintakik (birlik) butunlik, abzas va matn.

Til grammatik strukturasining oʻziga xos xususiyatlari bor.

Birinchidan, tilning grammatik qurilishi: soʻzning strukturasini, tuslanish va turlanish qoidalari, soʻz birikmalari va

grammatikaning turlari tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida juda sekin o'zgaradi.

Ikkinchidan, grammatika umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, arava, *maktab*, *tosh*, *bola* kabi so'zlarning o'z leksik ma'nosi bor, ammo, grammatik nuqtayi nazardan bu so'zlar predmetlik tushunchasini ifoda qilib, ot turkumini tashkil qiladi. Bu so'zlarni ularning leksik ma'nosi emas, grammatik ma'nosi umumlashtiradi. Tilning grammatik strukturasini morfologiya va sintaksis o'rganadi. Morfologiya so'zning turkumlari va ularning grammatik formalarini tekshiradi. Sintaksis esa nutqning grammatik strukturasini o'rganadi. Bunda gap asosiy birlikdir. Gapdan katta birliklar ham sintaksisda o'rganiladi.

Tiltizimi til birliklari -fonema, morfema, so'z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, aloqa-munosat vositasi bo'lgan tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida o'zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Tizimni tashkil qiluvchi mutanosiblik o'ziga xos bo'lgan alohida qoidalarda namoyon bo'ladi. Muayyan tildagi gaplar so'zlardan, so'zlar bo'g'inlarning birikuvidan, bo'g'inlar nutq tovushlaridan hosil bo'ladi. Jumlani, gapni tashkil etuvchi so'zlar o'zaro til qonuniyatlari asosida birikadi. Istalgan har qanday so'zlar yig'indisi gap bo'la olmaydi. Tartibsiz suratda yig'ilgan so'zlar mazmun ifodalash uchun xizmat qilmaydi. So'zlarning ketma-ketligi ma'lum tartib va umumiy qoidaga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Shu holatning o'ziyoq tilning tizim ekanligini ko'rsatadi. Ma'lum bir tilga xos tovushlar shu tilning fonetik tizimini, so'zlar leksik tizimini tashkil etadi. Bir tildan ikkinchi tilga o'zlashgan so'z shu tilning fonetik tizimiga-talaffuz me'yorlariga bo'ysunadi. Masalan: o'zbek tiliga rus tilidan kirgan ayrim so'zlar o'zbek tili talaffuz me'yorlariga moslashadi: *chaynik-choynak*, *podnos-patnis*. Aksincha o'zbek tilidan rus tiliga o'zlashgan so'zlar rus tilining talaffuz

me'yorlariga bo'ysungan: *qorovul-karaul, karvon-karavan, bozor-bazar.*

Umuman, tilda tovushlar, lug'at tarkibi, grammatik tartib birikib, tizim sifatida bir butunlikni tashkil etadi. Til tizimini tashkil etuvchi sathlar o'zaro mutanosib holda bir-birini taqozo qiladi. Ular orasidagi bog'liqlik tilning umumiy qoyidali va qonuniyatlariga asoslangan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

- 1. Sistema nima?*
- 2. Til nima uchun sistema deb ataladi?*
- 3. Til elementlarining munosabatlari qanday?*
- 4. Paradigmatik munosabat deganda nimani tushunamiz?*
- 5. Sintagmatik munosabat deganda nimani tushunasiz?*
- 6. Til sathi deganda nimani tushunasiz va uning qanday turlari mavjud?*

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. –B.6-7.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1995. –B.9-12.
3. Nurmonov A., Usmonova H., Boboxonova D. Tilni sistema sifatida o'rganish. Namangan. – 2011. –B. 5-14.
4. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1981. –B. 21-24.
5. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007. – B.31-36.
6. O'rinboev B., Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. Ma'ruzalar matni. – Samarqand, 2004. –B.158-164.
7. Pardayev A. Tilshunoslik nazariyasi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 46-50.

(5-ma'ruzaga ilova)

Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlar

Reja:

1. Nutq tovushlarining kombinator o'zgarishlari.
2. Nutq tovushlarining pozitsion o'zgarishlari. Reduksiya.

3. Fonetik o'zgarishlarning boshqa turlari.

Tayanch so'z va iboralar: kombinator o'zgarishlar, *assimiliyatsiya, dissimiliyatsiya, regressiv va progressiv assimiliyatsiya, regressiv va progressiv dissimiliyatsiya, reduksiya, akkomodatsiya.*

Nutq tovushlari har bir til qonun-qidalariga muvofiq ma'lum tartib bilan tutashib, birikib so'z hosil qilarkan, so'z tarkibida aks ettirilgan harflarga nisbatan birmuncha o'zgargan holda talaffuz etilishi mumkin. So'zlashuv jarayonida nutq tovushlarining ayrim tovushlarning bir-biriga ta'sir qilishi natijasida fonetik o'zgarishlar ro'y beradi. Masalan, *yetdi, kelibdi* shaklida yoziladigan so'zlar og'zaki nutqda *yetti, kelipti* shaklida talaffuz etiladi.

Nutqda so'z tarkibidagi tovushlarning bunday o'zgarishiga kombinator o'zgarishlar deyiladi. Kombinator o'zgarishlar assimiliyatsiya, dissimiliyatsiya jarayonlarida va boshqa fonetik jarayonlarda ro'y beradi.

So'zlarda ikki yonma-yon tovushning bir-biriga ta'sir qilishi natijasida, ya'ni oldingi tovushning keyingisiga yoki keyingi tovushning oldingisiga o'xshab ketishi, moslashishi kabi fonetik jarayon assimiliyatsiya hodisasi deb ataladi. Bunday hollarda tovushlar artikulyatsiya yoki akustik jihatidan bir-birlariga moslashadi. Masalan, yozuvda *otda* shaklida ifodalangan so'z so'zlashuv jarayonida *otta* deb talaffuz etiladi: bunda shu ot so'zidagi jarangsiz t tovushi ta'sirida natijasida shu tovushdan kelgan jarangli d ham t ga o'xshab ketib ketgan. Rus tilida *sdelat* so'zi talaffuzda *zdelat* tarzida aytiladi, bunda keyingi jarangli d tovushining ta'siri bilan oldingi jarangsiz s tovushi jarangli z tarzida talaffuz etiladi, ya'ni d undosh tovushi o'zidan oldingi kelgan jarangsiz s undosh tovushini o'z-o'ziga o'xshatib singdirib, jaranglilashtiradi.

Ba'zi tillarda assimiliyatsiya hodisasi ofrografiya ham o'z aksini topadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida jo'nalish kelishigi, asosan –ga affiksi bilan ifodaladi. Lekin q, k tovushlari bilan tugagan so'zlarning oxirida jarangsiz undosh

tovushi boʻlgani uchun –qa,-ka shaklida yoziladi: *oʻrtoq-ga-oʻrtoqqa, terak-ga-terakka kabi*. Bunday holni rus tilida ham uchratish mumkin: z tovushi bilan tugagan prefikslar jarangsiz tovushlar bilan boshlangan soʻzlar oʻzagi bilan kelganda, jarangsizlashib, talaffuzga muvofiq s harfi bilan yoziladi: Masalan, *bezplatno- besplatno, izxodit- isxodit*.

Assimiliyatsiya ikki xil boʻladi. Agar soʻzda oldingi tovush oʻzidan keyingi tovushga taʼsir qilib, uni oʻziga qisman yoki toʻla oʻxshatsa, bunday hodisa progressiv assimiliyatsiya deyiladi. Masalan, *otdan* (ottan), *tutda* (tutta), *beshga* (beshka) kabilar. Progressiv assimiliyatsiya asosan turkiy tillarga xosdir.

Agar soʻz tarkibidagi keyingi tovush oʻzidan oldin kelgan tovushga taʼsir qilib, uni oʻziga toʻla yoki qisman oʻxshatsa, bunday assimiliyatsiya regressiv assimiliyatsiya deyiladi. Masalan, *mazkur, atlas, birla* soʻzlari *maskur, allas, billa* tarzida talaffuz etiladi. Regressiv assimiliyatsiya, ayniqsa, rus tiliga xosdir. Masalan, *lodka* soʻzida **k** tovushi oʻzidan oldin kelgan jarangli **d** tovushi taʼsir qilib, uni **t** tovushiga aynaltiradi, natijada bu soʻz *lotka* tarzida talaffuz etiladi.

Maʼlum holatda roʻy beruvchi tovushlarning oʻzgarishi pozitsion oʻzgarishlar deb ataladi. Pozitsion oʻzgarishlar uch turga ega 1) urgʻuga nisbatan urgʻuli va urgʻusiz unlilar farqlanadi; 2) boʻgʻin va uning tabiatiga koʻra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan boʻgʻinlar farqlanadi; 3) soʻzdagi oʻrniga koʻra soʻz boshi, oʻrtasi va oxiridagi tovushlar va ularning birikmalari farqlanadi. Unli tovushlarning urgʻusiz boʻgʻinlarda kuchsizlanishi yoki oʻzgarishi reduksiya deyiladi. Odatda sifat va miqdor reduksiyasi farqlanadi. Urgʻusiz yopiq boʻgʻinlarda unlilar choʻziqligining qisqarishi va kuchli artikulyatsiya qilinishining yoʻqolishi miqdor reduksiya deb ataladi. Masalan, sanash soʻzining boshidagi urgʻusiz /a/, oxiridagi /a/ ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqa talaffuz etiladi. Rus tilidagi gorod, goroda soʻzlarida urgʻusiz unlilar kuchsiz va qisqaroq talaffuz etiladi. Tovushlarning urgʻuga nisbatan oʻrniga koʻra ikki xil pozitsiya farqlanadi: urgʻuli

bo‘g‘indagi holati – kuchli pozitsiya deb, urg‘usiz bo‘g‘indagi holati – kuchsiz pozitsiya deb ataladi. Kuchli pozitsiyada unlilar o‘z artikulyatsion-akustik xususiyatlarini saqlab qoladi. Kuchsiz pozitsiyada unlilar miqdor va sifat belgilarini yo‘qotadi, ya’ni reduksiyaga uchraydi. Yuqorida ko‘rsatilgan miqdor reduksiyasidan tashqari sifat reduksiyasi ham bor. Sifat reduksiyasida bir yo‘la tovushning artikulyatsiyasi kuchsizlashadi va tovushning sifati o‘zgaradi. Masalan, rus tilidagi voda, воды, vodyanoy, vodavoz so‘zlaridagi urg‘usiz unlilar (o, a) tovushlari doirasida o‘zgaradi. O‘zbek tilida bunday xususiyat yetarli darajada ko‘zga tashlanmaydi. Reduksiyaga uchragan tovushlar urg‘uli tovushlarga qaraganda aniq bo‘lmagan kuchsiz va qisqaroq talaffuzga ega. Reduksiyaning darajasi faqat tovushning holatiga emas, balki talaffuz stiliga ham bog‘liq. Odatda to‘liq talaffuz stilida reduksiya minimal darajada bo‘lib, og‘zaki nutq stilida esa, u maksimal darajada ro‘y beradi. Undan tashqari reduksiyaning darajasi unlilarning tilning ko‘tarilishiga ko‘ra belgilariga (yuqori, o‘rta, quyi) ham bog‘liq. Undosh tovushlar ham pozitsion o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. O‘zbek tilida so‘z oxiridagi jarangli undoshlar jarangsizlashishi bunga misol bo‘la oladi (kitob /kitop/, qand /qant/ kabi). Ba‘zan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda so‘z oxiridagi jarangsiz undoshlar jarangli bo‘lib talaffuz etiladi (bilak-bilagi, kurak-kuragi, tilak-tilagi kabi).

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. –B.33-40.

2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995. –B.32-37.

3. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1981. –B.47-52

Quyidagi fikrlarga e’tibor bering.

Tilning sistemaliligi olamning, obyektiv borliqning sistemaliligidan kelib chiqdi.(V.M. Solntsev).

Bizni qurshab turgan muhit (bu ham moddiy, ham ma'naviy) o'zaro ajralgan alohida-alohida predmet, hodisa, jarayonlardan tashkil topgan emas, balki o'zaro bog'langan obyektlar yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, bir butun, sistem tuzilmaning ma'lum bir turidir. (V. G. Afanasyev).

Har qanday til hodisasini o'rganishda barcha til materiallari yig'indisini hisobga olgan holdagina munosabatda bo'lish zarur, faqat shu yo'l bilan til hodisalari o'rtasidagi sabab bog'lanishlarini bilishga o'tish mumkin. (G.Raul).

Tizim tilning sinxron holati uchun xarakterli. Tizimning barcha a'zolari tenglikka ega. Struktura deganda tizim a'zolarining munosabat tiplari tushuniladi. Til g'oyalarni ifodalovchi belgilar tizimidir. (F.de Sosyur).

Tizim o'zaro munosabatda bo'lgan elementlardan tashkil topgan bir butunlikdir. (A.Bertalanfi)

Til sathi til sistemasining u bilan bir xilda nomlanuvchi birliklarga ega bo'lgan qismidir. (Yu. Stepanov).

“Tilga sistema sifatida yondashuv Ferdinand de Sossyurdan yoki XX asr boshlaridan amal qila boshladi” tipidagi gaplarning hammasi soxtadir. Chunki tilga antik davrda ham sistema sifatida qaralgan. Sistemani idrok etmasdan turib esa o'rganishga kirishilmaydi. Jahon tilshunosligi tarixida tilga sistema sifatida qaramay turib amalga amalga oshirilgan birorta tadqiqot yo'q. Ularning hammasida “Biz tilga sistema sifatida yondashib turib tadqiqot olb bordik”, –degan gap –fikr aytilmagan, xolos. (Yo. Tojiyev)

Paradigma (yun. – misol, namuna). Til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi tizimi. Mas, fe'lning shaxs-son paradigmasi; otning kelishik paradigmasi va b. (A.Hojiev)

Sintagma (yun. – birlashgan narsa). Nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik-sintaktik birligi. (A.Hojiev)

Til sistemasi deb, til obyektlari joylanishining va tashkil qilinishining umumiy prinsiplari tushuniladi. Til strukturasi tushunchasi sistema tuzulishining faqat bir tomonini xarakterlaydi, ya'ni u "nisbiy, ma'lumot qolipidir". (E.Begmatov).

6-mavzu. Til ramzlar tizimi. Tilning semiotik tabiati

Reja:

1. Belgilar tizimi. Tilshunoslik va semiotika.
2. Tilning belgilar sistemasi ekanligi. Lingvistik belgilarning boshqa belgilardan farqi.

Tayanch soʻz va iboralar: belgilar tizimi, belgi aspektlari, lisoniy va nolisoniy belgilar, signal, simvol, semiotika, semiotika yoʻnalishlari.

1.Belgilar tizimi. Tilshunoslik va semiotika. Til kishilar oʻrtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. U obyektiv borliqdagi maʼlum voqea-hodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Bundan axborot tashishning boshqa yoʻllari ham borligi maʼlum boʻladi. Masalan yoʻl harakatidan maʼlumot beruvchi vositalar, yoʻldan oʻtish-oʻtmaslik xabarini beruvchi vositalar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiy narsa, avvalo, oʻzi haqida va shu bilan birga borliqdagi maʼlum narsa-hodisalar haqida maʼlumot berishdir. Bunday vositalar belgilar deb nomlanadi. Inson oʻzini qurshab turgan olamni bilish jarayonida olam unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalanadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi.

Belgilar tizimini oʻrganish, uni sistemalashtirish bilan bogʻliq muammolarning paydo boʻlishi semiotika degan maxsus fanni yuzaga keltirdi. Bu yangi fanning paydo boʻlishi Ch. Morris asarlarining yuzaga kelishi bilan bogʻliq. Muallif

o'z asarlarida o'zigacha o'tgan Pris, Gusserli kabi faylasuflar va F.F.Fortunatov, F. de Sossyur kabi tilshunoslar tomonidan qilingan barcha ishlarni umumlishtiradi.

Semiotika turli kommunikatsiyaning amaliy talablaridan kelib chiqib, uning turlarini o'rganadi. Semiotika bunda struktura belgisining izomorf hamda izomorfizm, ya'ni tilning turli yaruslari o'rtasidagi sifat farqlarini inkor etib, ularni ilmiy tadqiq etishda bir xil metod va usullardan foydalanish g'oyalariga amal qiladi.

In'ikos natijalari bilan in'ikos ettiradigan buyum o'rtasidagi nisbat izomorfizm shaklida ifodalanadi.

Izomorfizm talablariga amal qiluvchi semiotika, ya'ni tabiat va jamiyatdagi belgilar tizimi haqidagi fanning beshta yo'nalishi bor:

1. Mavjud tabiiy va biologik belgilarni o'rganuvchi biosemiotik yo'nalish .

2. Insonning madaniyat darajasi, urf-odati, holatini tasvirlovchi etnosemiotik yo'nalish.

3. Tabiiy tillarni, ularning stilistik va bir-biridan ajralmaydigan belgilar tizimini o'rganadigan lingvosemiotik yo'nalish.

4. Belgilangan material bilan bog'liq bo'lmagan holda o'ziga xos umumiy xususiyatlarni belgilovchi abstrakt semiotik yo'nalish.

5. Mazkur yo'nalishlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan masalalarni hal qiluvchi umumiy semiotik yo'nalish.

Belgi tizimi haqida fikr yuritganda uning turlari haqida to'xtalib o'tish, ularning birini ikkinchisidan farqlash lozim. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, belgilarni birinchi marotaba tasnif qilgan olim Ch. Pirs sanaladi va u belgilarni uch katta guruhga ajratadi.

1. Sanam belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ma'lum darajada ifodalanmish bilan o'xshashlikka ega bo'ladi: (Masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi).

2. Indeks-belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi

ifodalanmish bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bog'liqlik va boshqalar) orqali bog'lanadi. Masalan, tugun olovning indeks belgisi sanaladi.

3. Simvol-belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasida shartli, konventsional, motivlanmagan munosabat mavjud bo'ladi. Bu munosabat erkin va ma'lum qoida asosida vujudga keladi.

Lingvistik belgilar simvol-belgilarga mansubdir. Til ham belgilar sistemasi sifatida e'tirof etilarkan, demak, u ham semiotikaning tarkibiy qismi sifatida qaralishi va semiotikaning boshqa qismlari bilan uzviy aloqada o'rganilishi lozim.

Lingvistik belgilar bilan boshqa belgilar sistemasi (masalan, Morze alifbo sistemasi, musiqa ijrolari, mimika va imo-ishoralar, yorug'lik va tovush signallari va h.k.) muayyan umumiylikka ega. Ular quyidagilardan iborat:

- a) hammasi ma'lum axborot tashiydi;
- b) hammasi sosial hodisa. Chunki ular jamiyatga xizmat qilish uchun jamiyat tomonidan yaratilgan;
- v) hammasi moddiylikka ega (lekin bu moddiylik turlicha ko'rinishga ega: yorug'lik to'liqini, tovush to'liqini, grafik tasvir va h.k.);
- g) hammasi obyektiv borliqni ifodalaydi.

Lingvistik belgilar bilan boshqa belgilar sistemasi o'rtasida yuqoridagi kabi umumiy jihatlardan tashqari, qator farqli tomonlar ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Til kishilar o'rtasida eng muhim aloqa vositasi sanalib, u umuminsoniy xususiyatga ega. Barcha kishilar o'zining turli xil faoliyat doirasida lingvistik belgilar vositasida o'z fikrini bayon qiladi. Boshqa turdagi belgilar esa bu jihatdan ma'lum guruh doirasida chegaralangani bilan farqlanadi.

2. Lingvistik belgi har qanday axborotni, insonning ichki kechinmalarini chegaralanmagan holda ifodalash, boshqa belgilar esa chegaralangan axborotni ifodalash imkoniga ega. Masalan, musiqa insonning ichki kechinmalarini, hissiyotlarini

ifodalashi mumkin. Lekin u tushuncha va hukmlarni ifodalolmaydi.

3. Lingvistik belgi kishilarning obyektiv olam haqidagi bilimlarini boshqalarga uzatish vazifasini bajarish bilan birga soʻzlovchining mazkur axborotga munosabatini, ayni paytda, tinglovchiga taʼsir qilish vazifasini ham bajaradi. Bu jihatdan, boshqa belgilar sistemasi faqat axborot berish (imo-ishoralar, Morze alifbosi, yorugʻlik toʻlqini va h.k.) yoki tinglovchiga taʼsir qilish (muzika) vazifasini bajaradi.

4. Lingvistik belgilardan boshqa barcha belgilar sistemasi insonning sunʼiy ijod mahsulidir. Ular maʼlum guruhning kelishuvi yoʻli bilan sunʼiy ravishda yaratiladi. Lingvistik belgilar esa jamiyatning u yoki bu aʼzosi ixtiyoriga bogʻliq boʻlmagan holda rivojlanadi. Har bir yangi avlod shu jamiyatning tarixiy tarkib topgan va uzluksiz rivojlanishda boʻlgan tilini oʻzlashtiradi, keyingi avlodga yetkazadi.

5. Lingvistik belgining yana eng muhim belgisi uning diskretligi, ketma-ket joylashuvi va erkinligidir.

Lingvistik belgilar inson kommunikativ faoliyatining asosini tashkil qiladi. Boshqa barcha belgilar sistemasi kommunikasiya jarayonida tovushlar yordamida ifodalanayotgan axborotga qoʻshimcha axborotni bildirish yoki «tovush nutqi»ga yordamchilik qilish vazifasini oʻtaydi.

Kishilar oʻz nutqiy faoliyatida tez-tez qoʻllab turadigan mimika va turli xil imo-ishoralar ham nutqni kuzatib boruvchi qoʻshimcha vositalar sanaladi. Baʼzi oʻrinlarda qisman uning oʻrnini bosishi mumkin.

Lingvistik belgilar inson kommunikativ faoliyatining asosini tashkil etadi. Boshqa barcha belgilar sistemasi kommunikasiya jarayonida tovushlar yordamida ifodalanayotgan axborotga qoʻshimcha axborotni bildirish yoki «tovush nutqi»ga yordamchilik qilish vazifasini bajaradi.

Kishilar oʻz nutqiy faoliyatida tez-tez qoʻllab turadigan mimika va turli xil imo-ishoralar ham nutqni kuzatib boruvchi qoʻshimcha vositalar sanaladi. Baʼzi oʻrinlarda qisman uning

o‘rni bosishi mumkin.

Xullas, til kishilarning bir-birlariga turli axborotlarni xabar qiluvchi, yetkazuvchi belgilar tizimidir. Tilning belgilik xususiyatini tilshunoslikning lingvosemiotika bo‘limi o‘rganadi. Lingvosemiotika tilshunoslik bilan semiotika hamkorligida yuzaga kelgandır.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Belgilar tizimini o‘rganuvchi bo‘lim nima deb nomlanadi?
2. Belgi turlarini toping. Ularni kim dastlab turlarga ajratgan?
3. Belgilarning lingvistik belgilar bilan umumiy tomonlarini ayting.
4. Belgilarning lingvistik belgilardan farqli tomonlarini ayting.

Adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 140-143.

2. Nurmonov A., Usmonova H., Boboxonova D. Tilni sistema sifatida o‘rganish. Namangan. – 2011. – B. 12-31.

Quyidagi fikrlarga e‘tibor bering.

“Til - belgilar tizimidir. Bunda birdan–bir muhim narsa mazmun bilan akustik obrazning birikishi hisoblanadi. Shu bilan birga, belgining bu ikki elementi teng mohiyatli psixik hodisalardir” (F. de Sossyur).

“Belgi - bu idrok qilanadigan narsa bo‘lib, idrok qiluvchiga o‘zi xaqida va ushbu belgadan tashqarida bo‘lgan boshqa narsa haqida ma‘lumot beruvchi vositadir”. (Yu. S. Maslov)

7-mavzu: Dunyo tillari tasnifi va tavsifi

Reja :

1. Tillarning geneologik tasnifi.
2. Tillarning morfologik tasnifi.
3. Analitik tizimdagi tillar.
4. Sintetik tizimdagi tillar.
5. Polisintetik tillar.

Tayanch soʻz va iboralar: tillarning geneologik tasnifi, morfologik tasnif, analitik tizimdagi tillar, sintetik tizimdagi tillar, polisintetik tillar, agglutinativ tillar, flektiv tillar, amorf tillar .

Dunyoda uch mingdan ortiq (ayrim manbalarda yetti mingga yaqin) til mavjud ekan, tabiiyki, ularni tasniflab oʻrganishga ehtiyoj tugʻiladi. XIX asrga kelib bu borada yetarli ilmiy maʼlumotlar toʻplandi, tillarni tipologik guruhlashga ehtiyoj ortib bordi. Shu tarzda tilshunoslikda qator tasniflar vujudga keldi. Jumladan: areal-geografik, genetik-geneologik, morfologik-tipologik kabi.

Areal tasnifda jahon tillarining xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonida xarakteristikasi, ayrim tillarining qoʻllanish doirasining kengayishi kabi masalalar oʻz ifodasini topadi. Mas., Oʻzbekiston hududida millat va elatlarning joylashishi. (Dunyodagi tillarning taraqqiyot tarixi shuni koʻrsatadiki, qabila, elat, irq, hudud chegarasi bilan til chegarasi oʻzaro toʻgʻri kelmaydi).

Tillarning *tipologik tasnifi* da tillarning grammatik qurilishi asosga olinib, ularning asosiy tiplari belgilanadi. Unda tillarning morfologik va sintaktik tipologiyasi farqlanadi. Morfologik tasnif ana shu usulga asoslanadi.

Morfologik tipologiya da koʻproq soʻzlarning oʻzgarishi asosga olinadi. Tillarning morfologik tasnifi soʻz qurilishida oʻzak va affikislarning oʻzaro qarama-qarshi qoʻyishga asoslanadi. Bu tasnif tilshunoslikda keng tarqalgan.

Sintaktik tipologiya gap va soʻz birikmalarida ifoda qilinadigan logik - semantik munosabatlarning universalligiga suyanadi, bunda kesim shakli, sintaktik aloqa, gapdagi logik semantik munosabatlar hisobga olinadi.

Geneologik tasnifda til faktlari tarixiy prinsip (usul) asosida oʻrganilib, tillarning qarindoshlik munosabati hisobga olinadi.

1. Tillarning geneologik tasnifi. Tillarning geneologik tasnifi til faktlarini tarixiy printsip asosida o‘rganib, tillarning qarindoshlik munosabatlarini aniqlaydi.

Eng ko‘p tarqalgan tillar quyidagilar:

I. Hind-evropa tillari oilasi.

1. Hind tillari guruhi. Jonli tillar: *hind, urdu, bengal, panjob, maratxi, singal’, nepal, bixar, oriy, assam, kashmir, lo‘lilar tili*. O‘lik tillar: *sanskrit*.

2. eron tillari guruhi: *fors, pushtu, tojik, kurd, osetin, sug‘diylar tili, pomir tili. Pomir tillari, skif, pahlaviy, xorazmiy, qadimgi fors, parfiyan tillari o‘lik tillar* hisoblanadi.

3. Slavyan tillari guruhi: sharqiy, janubiy, g‘arbiy.

a) sharqiy: *rus, ukrain, belorus*.

b) janubiy: *bolgar, makedon, serb-xorvat, slovyan tili*.

v) *chex, slovak, polyak, kashub, sorab*.

4. Boltiq tillari guruhi: *litva, latviya*.

5. German tili guruhi: shimoliy, g‘arbiy, sharqiy.

a) shimoliy: *daniya, shved, norveg, island*.

b) g‘arbiy: *ingliz, golland, frits, nemis*.

v) sharqiy: *vestgot, ostgot (o‘lik tillar)*

6. Roman tili guruhi: *frantsuz, ital’yan, ispan, portugal, rumin, moldovan, lotin*.

7. Kel’t tili guruhi: *irland, shotland (o‘lik)*.

8. Grek tillari guruhi: *grek*

9. Alban tili

10. Arman tili

II. Xom va som tillari oilasi.

Som tillari:

-sharqiy som tili: *akkad*

-shimoliy som tili: *xannan, oromiy*.

-janubiy som tili: *arab va axmar tili*

Xom tillari: *shilx, tuareg, kabil, amazirt, kot, beroer va kushit o‘lik tillardan liviya, numid, shtul, misr tillari* kiradi.

III. Kavkaz tillari oilasi.

1. G‘arbiy guruh: *abxaz, kabardin, cherkas, adigey*.

2.Nax tili guruhi: *chechen, ingush, batsbiy*.

3.Dog‘iston tillari guruhi: *avar, darg‘in, lezgi, lak, tabasaran* (bularning yozuvi bor) va *andiy, karatin, tindin, chamolin, bagaul’, axvax, butlix, gadoborn, tsez, betedin* (yozuvi yo‘q) tillari.

4. Janubiy yoki kartvel tillari guruhi: *gruzin, zan, svan*.

1U.Ugor-fin tillari oilasi.

1.Ugor tillari guruhi: *venger(mojor) tili,mansay tili va xantay*.

2. Fin tillari guruhi: *fin, sam, eston, karel’, komi, udmurt, mariy, morden*.

Samodiy tillari guruhi: *nenets, enets, sel’kum*.

V.Tungus-manjur tillari oilasi.

1.Tungus tillari guruhi: *evenk, even*.

2. Manjur tillari guruhi: *manjur, nanay, udey, ulch, oroch* (SHarqiy Sibir’, Saxalin, Chukotka)

VI. Xitoy-tibet tillari oilasi.

1.Tay-xitoy tillari guruhi: *xitoy, dungan, vet’nam, tay, laos*.

2.Tibet-birma tillari guruhi: *tibet, birma*.

VII. Dravid tillari oilasi: *tamil, malalayam, telugu, kannar, tulu, barxun, gondi*.

VIII. Malay-polineziya tillari oilasi.

Indoneziya tillari: *malay, yava, dayak, tagal’, batak, age, bali, madur, torigi, bug‘iy*.

IX. Avstaliya tillari oilasi: *asosiysi aranta*.

X. Papuas tillari oilasi.

YAngi Gveniyadagi 4000 ga yaqin til papuas tillari deb ataladi.

XI. Afrika tillari oilasi.

1.Bantu tillari guruhi: *bube, lundu, fang, kongo, rundi, ganda, poto, igala, luba, bemba, subiyya, suaxili, sanga, shambala, zulu, soto, venta, lunda*.

2.Sudan tillari guruhi: *zanda, banda, koma, kunama, kardofan, mil’tu*.

XII. Paleosiyo tillari oilasi.

1.Chukot tillari guruhi: *chukot, koryak*.

2.Sibir' guruhi: *odul', nivx*.

XIII.Eskimos tillari oilasi. Vrengel', Chukotka, Kanada, Alyaskaning shimolida yashovchi xalqlarning tillari eskimos tillari oilasini tashkil qiladi.

XIV. Shimoliy Amerika tillari oilasi. Amerika hindularining tillari ko'pchiligi yo'qolib ketgan, yozuvga ega emas. 200 dan oshiq.

Birorta tillar oilasiga kirmagan tillar: *yapon, koreys, ayn*.

XV. Mo'g'il tillari oilasi: *xalxa-mo'g'il, buryat, qalmiq*.

XVI. Turkiy tillar oilasi: 30 ga yaqin.

Turk, ozorbayjon, turkman, gagauz, qrimtatar, qoragay, balgar, qo'miq, nug'oy, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirg'iz, o'zbek, qoroqalpoq, chuvash, uyg'ur, qozoq.

1.Bulg'or tillari guruhi: *chuvash, qadimgi bulg'or, xazar*.

2.O'g'uz tillari guruhi: *turkman, truxman, o'g'uz-bulg'or-gagauz, bolqon; ozarbayjon va turk*.

3.Qipchoq tillari guruhi: *qaray, qo'miq, koragan-balqar, qrim-tatar-qirim, belorus, litva tatarlari: tatar, boshqird, no'g'oy, qaraqalpoq, qozoq*.

4.O'zbek va uyg'ur tillari guruhi: *o'zbek, uyg'ur*.

5.O'g'iz tillari guruhi: *tuva, tofalar, (yoki karagass-krasnoyarskda)*.

6.Yoqut tili.

7.Xakas tili guruhi: *xakas, shor, cho'lim, oltoy-shimoliy shevalar*.

8. Qirg'iz-qipchoq tillari guruhi: *qirg'iz, oltoy*.

Geneologik tasnif tillarning bir manbadan kelib chiqishini, qaysi tillar bir-biri bilan qardosh ekanligini, shu bilan birga so'zlarni, qo'shimchalarni va boshqa grammatik xususiyatlarni nazarda tutib, tillarni ayrim guruhlariga ajratadi.

Geneologik tasnifda guruhlariga ajratilgan tillarning kelib chiqishi, so'zlarning paydo bo'lishi va manbai, ularning ma'no

jihatdan yaqinligi, shu bilan birga, ularda tovushlar va affikslar o'xshashligi hisobga olinadi.

Tillarning qarindoshligini biologik hodisa deb qarash kerak emas.

Qardosh tillar jamiyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yo differentsiatsiya yoki integratsiya yo'li bilan paydo bo'ladigan tarixiy hodisadir.

Zamonaviy tilshunoslik ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud.

Afrika tillari oilasi keyinchalik yana uchga bo'lingan: 1. bantu; 2. sudan; 3. paleoafrika tillari oilalari.

Yana: Austr-Osiyo tillari oilasi - mon, kxmer, malak tillari va b. Burjaski tillari oilasi 30 ming kishi gaplashadi. Hindistonning Qorakorum dovonida yashaydi.

2. Tillarning morfologik tasnifi. Bu tasnif ham tillarni qiyoslab o'rganishga asoslansa-da, prinsip va maqsadlari turlichadir.

Morfologik tasnif tillarning kelib chiqishi, tarixi va uning qarindoshlik munosabatlari bilan qiziqmaydi, bu tasnif tillarning grammatik xususiyatlarini, aniqrog'i, o'zak va affikslarni qarama-qarshi qo'yish asosida taqqoslab o'rganishga asoslanadi.

Morfologik tasnif natijasida til tiplari ajratiladi. Buning uchun til qurilishi o'rganiladi.

Tillarning morfologik tasnifiga yirik nemis olimi Fridrix Shlegel asos solgan. Tillarning morfologik tasnifi bilan keyinchalik Avgust fon Shlegel, Vil'gel'm fon Gumbol'd, Avgust Shlayxer, G.Shteyntal, N.Fink, F.F.Fortunatov kabilar shug'ullanishgan.

Hozirgi tilshunoslikda quyidagi to'rt tipga asoslaniladi:

I.O'zakli yoki ajratuvchi tillar. Bu tillarga xitoy, birma, tay, tibet va boshqa janubiy-Sharqiy Osiyo tillari kiradi. Bu tillarda forma yasovchi, so'z o'zgartiruvchi affikslar yo'q. Boshqacha qilib aytganda, gapda so'zlarning o'zaro grammatik

aloqasini ko'rsatib turuvchi affikslar bo'lmaydi. Bunday tillarda gap sostavida so'zlarning grammatik vazifasi va ularning o'zaro munosabati so'zning o'rniga qarab belgilanadi. Grammatik munosabatda so'z tartibi, urg'u, intonatsiya va boshqa vositalar orqali ifodalanadi.

O'zakli tillarda gapda so'zlarning o'zaro grammatik munosabatlari, asosan, so'z tartibi orqali ifodalanadi. Mas., *shu fan tszay chjotszi-shan-kitob stolning ustida yotibdi, chjotszi-shan fanchchjd shu stolning ustida yotgan narsa kitobdir.*

Xitoy tilida bir so'z turli matnda turlicha ma'no va turli grammatik vazifada kela oladi:

xao jen'-yaxshi odam

sio xao-yaxshilik qilish

dzio xao-qadimgi do'stlik

xao vo-bu kishi meni yaxshi ko'radi.

II. Agglyutinativ tillar.

Agglyutinativ tillarga turkiy va fin-ugor tillari oilasidagi mo'g'ul tillari, dravid, batu, yapon tillari kiradi.

Agglyutinativ tillarning boshqa tillardan ajralib turadigan grammatik xususiyatlari quyidagilar:

1. Affikslar bir ma'noni ifodalaydi. Flektiv tillarda bir vaqtning o'zida affiks ikki ma'noni ifodalashi mumkin: *druziyam-jo'nalish kelishigi, rod.*

2. Affikslar o'zakka mexanik ravishda qo'shilaveradi. Flektiv tillarda esa birikib ketadi: *maktablardan-viju/vid.*

3. Turkiy tillarda prefeks yo'q, grammatik ma'nolar affikslar orqali ifodalanadi. Flektiv tillarda ikkalasi ham mavjud.

4. Turkiy tillarda ko'makchilar ot yoki ot vazifasidagi so'zlardan keyin keladi, sintaktik munosabat ifodalaydi: *Ukam uchun oldim.* Flektiv tillarda oldin kelib, shu vazifani bajaradi: *v knige, nad stolem.*

5. Turkiy tillarda rod (jins)kategoriyasi yo'q.

III. Flektiv tillar.

Flektiv tillarga hind-evropa tillari kiradi. Soʻzning morfologik formalarining fleksiya orqali yasalishi bu tillarning asosiy xususiyatlaridir. Bu tillarda har bir mustaqil soʻzning dastlabki shakli ham negiz va qoʻshimchalarga boʻlinadi, natijada oʻzak negiz mustaqil qoʻllanmaydi. Mas., *rus tilida siju, sidishʻ, sidyat* soʻzlarining oʻzak-negizi *sid, sij* boʻlib, ular mustaqil qoʻllanmaydi.

Flektiv tillarga soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi funktsiyani bajaradigan ichki fleksiya xos. Bunda oʻzak-negiz tovush almashinuvi bilan turli grammatik maʼnolar ifodalanadi. Mas., arab tilida: *ktb-kataba: u yozdi, kotib: yozuvchi, kitob: kitob, akteb: yozmoq, maktab: idora, makaatib: idoralar, madrasa: maktab, madarris: maktablar* kabi.

IV. Polisintetik tillar.

Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari ega, aniqlovchi, toʻldiruvchi va holni ifodalab kelgan soʻzlar feʼl bilan birikib, murakkab tarkibli qoʻshma soʻz formasiga oʻxshash gap hosil qilishdir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, toʻldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning oʻrtasida keladi.

Tillarni bunday tasnif qilish nihoyatda nisbiy. Ular mutloq qoidalarga boʻysunmaydi.

Morfologik tasnifda soʻzlarning tuzilishi eng muhim, eng asosiy belgi qilib olinadi. Tillarning kelib chiqishi eʼtiborga olinmaydi.

Unda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishidagi soʻz, turlovchi va tuslovchi qoʻshimchalarning bor-yoʻqligi, ularning xususiyatlari va soʻz yasalishi tomonlari hisobga olinadi.

Morfologik usul tillarni ikki asosiy guruhga ajratadi:

1. Qoʻshimchali tillar

2. Qoʻshimchasiz tillar

a) agglyutinativ – agglutinare - yopishtirish

b) flektiv – flexio - egilmoq, bukilmoq.

3. Analitik tizimdagi tillar. Analitik – grekcha *analitikas* – *echilish, ajralish* demakdir. Analitik tillarning xususiyati

shundan iboratki, bu tillarda grammatik munosabatlar qo'shimchalar orqali emas, analitik vositalar (so'z tartibi, bog'lovchi, ko'makchi va boshqalar) yordamida ifodalanadi. Ingliz, frantsuz, fors kabi tillar mana shunday tillardir. Analitik tillarga roman tillari, Daniya, yangi grek va boshqa tilar kiradi.

4. Sintetik tizimdagi tillar. Sintetik tillarda grammatik ma'no qo'shimchalar orqali, ya'ni so'zning tarkibida ifodalanadi. Masalan, rus tilida *knigu* so'zi leksik ma'nodan tashqari bir necha grammatik ma'nolarni ham ifodalaydi (vinitel'niy padej, birlik va jenskiy rod).

Sintetik (grekcha *sintetikos* – *biriktirish, birikish* ma'nolarini anglatadi) tillarga qadimgi hind-evropa tillari, hozirgi Litva, slavyan, nemis tillarining ko'pchiligi kiradi.

Sof analitik va sof sintetik tillar bo'lmaydi. Mas., budu pisat', budesh' pisat', budut pisat', budem pisat' – pishu, pishesh, pishet, pishut kabi.

6. Polisintetik tillar. Bu tillarga amerika hindulari tili, chukot, koryak va boshqa tillar kiradi. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari – ega, aniqllovchi, to'ldiruvchi va holni ifodalab kelgan so'zlar fe'l bilan birikib, murakkab tarkibli qo'shma so'z shakliga o'xshash gap hosil qilishidir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim; to'ldiruvchi, hol, aniqllovchilar esa ega bilan kesimning o'rtasida keladi. Mas., chukot tilida: *t'mayn'valmnark'nmen* – men (t'), katta (mayn), pichoqni (vala), charxlayapman (mnarkan); *ti-ata-kaa-nmi-rkiin* - men semiz bug'ularni o'ldirayapman.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Morfologik tasnifda asosiy belgi qilib qanday belgi olinadi?
2. Agglyutativ tillarga qaysi tillar kiradi?
3. O'zakli yoki ajratuvchi tillarga qaysi tillar kiradi?
4. Geneologik tasnifda tillarning qaysi jihati e'tiborga olinadi?

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.114-125.

2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995. –B.114-166.

3. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1981. –B. 194-204.

4. O‘rinboev B., Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. Ma’ruzalar matni. – Samarqand, 2004. –B.181-195.

5. Pardayev A. Tilshunoslik nazariyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 52-54.

8-mavzu: Tillarni ilmiy tadqiq etish metodlari

Reja:

1. Metod, metodika va usul tushunchalarini farqlash.
2. An’anaviy tahlil metodlari.
3. Zamonaviy tahlil metodlari.

Tayanch so‘z va iboralar: *metod, metodika, usul, tasviriy metod, struktural metod, kommutativ metod, distributiv metod, qiyosiy-tarixiy metod, lingvistik geografiya metodi, tipologik metod, matematik tahlil metodi.*

Til o‘z tabiatiga ko‘ra nihoyatda murakkab va ko‘p aspektli hodisa bo‘lganligi uchun uni o‘rganishda turli metodlar qo‘llanilgan va qo‘llanilmoqda. Fanlarni o‘rganish metodlari dastlabki paytlarda stixiyali xarakterda bo‘lgan.

Metod so‘zi grekchadan olingan bo‘lib, u «tadqiqot, ta’limot, bilish yo‘li» ma’nolarini anglatadi.

Har qanday fanning metodologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) falsafiy prinsip; b) ilmiy prinsip; v) tekshirishning maxsus metodlari. Har bir metodning o‘z metodikasi, tekshirish usuli bo‘ladi.

Metod haqiqatni bilish yo‘li bo‘lsa, metodika shu yo‘lni ochish va amalga oshirish yo‘lidir. Tilshunoslikda qo‘llangan va qo‘llanilayotgan ilmiy-tadqiqot metodlari anchagina.

2. An’anaviy tahlil metodlari. Tilshunoslik tarixida zamonlar sinovidan o‘tgan va hozirda ham qo‘llanilib kelayotgan metodlar an’anaviy tahlil metodlariga kiradi. Ulardan eng qadimiy va keng tarqalgani tavsifiy metod bo‘lib,

bu metod tildagi turli hodisa va ma'lumotlarni, uning sathi va birliklarini izohlab beradi, tahlil qiladi va ijtimoiy vazifalarni o'rganish uchun qo'llanadi. Tavsifiy metod asosida tilning fonemalar tizimi, morfem tuzilishi, grammatik kategoriyalari, so'zlarning ma'nolari va gap turlari o'rganiladi, tahlil qilinadi, tilning ichki qurilishi, tilning tizimini tashkil etgan birliklar orasidagi munosabatlarni o'rganishga katta e'tibor beriladi. Tildagi xarakterli xususiyatlarni kuzatish, til birliklarining qo'llanilishi va ularni tasniflash, ilmiy asoslash bu metodning asosiy vazifasi hisoblanadi. Tavsifiy metod ma'lumotlari boshqa barcha metodlar uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Struktural metod ko'pchilik adabiyotlarda taksonomik metod deb ham yuritiladi. Taksonomik metod tavsifiy metodning sifat jihatdan boshqacha, uning rivojlangan bosqichi hisoblanadi. Taksonomik metod til tizimini tasvirlashga da'vat qiladi. Shuning uchun bu metod tilshunoslikka oid adabiyotlarda struktural metod sifatida tavsiflanadi. Struktural tahlil metodi til tizimini tashkil etgan birliklar orasidagi munosabatni o'rganadi. Bu metod tasviriy metodga o'xshab ketadi. Lekin ular orasida farq bor: tasviriy metod tildagi birliklarning o'zini o'rgansa, struktural tahlil metodi o'sha birliklar orasidagi munosabatlar tobeliklarini tasvirlaydi.

Struktural tahlil metodi til va nutqni ajratish, til birliklari orasidagi o'xshashlik va noo'xshashliklarni, joylashish tartibi va boshqa nisbiy aloqalarni aniqlash lozim deb hisoblaydi.

Struktural tilshunoslik uchun tilning tuzilish aspekti ahamiyatli bo'lib, til nazariyasini yaratishda, umumiy tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda tayanch hisoblanadi.

Qiyosiy-tarixiy metod tilshunoslikda til tizimlarining bir-biri bilan munosabati, til birliklarining substansiya (ifoda va ma'no)siga asoslanib o'rganiladi. Tillarning qarindoshlik munosabati til birliklarining ifoda va ma'nosi bir-biriga mos kelishi yoki mos kelmasligiga asoslanadi. Bu metod aniq

tillardagi bir-biriga teng bo'lgan birliklarni solishtirib ko'rib, yozma yodgorliklarda qayd qilinmagan til birliklarini qayta tiklash usulidir.

Bu metod qadimgi sanskritda yozilgan yozma yodgorliklar tilini Evropa tillariga qiyoslab ko'rish va ular orasida o'xshashlik borligini aniqlash natijasida XIX asrning boshlarida maydonga keldi. Masalan, eski o'zbek tilida sirg'aluvchi z, qorishiq dz, portlovchi d va shular bilan vazifadosh y tovushi bo'lgan: *ozoq-odzoq-odoq-oyoq*.

Qiyosiy-tarixiy metodning qo'llanilishi natijasida uning bajarilishi mumkin bo'lgan to'rtta tipi vujudga keldi:

1. Chog'ishtirish uchun material to'plash.
2. Qator chog'ishtiriladigan birliklarni belgilash va ularni aynan bir narsa deb hisoblash.
3. Fonetik o'zgarishlarning nisbiy xronologiyasini belgilash.
4. Arxip tip rekonstruksiyanı aniqlash (so'z va morfemalarning eng qadimgi shakli va ma'nolarini tiklash).

Qiyosiy-tarixiy metod ta'sirida ichki va tashqi rekonstruksiya, glotoxronologiya, lingvistik geografiya metodlari shakllangan.

Zamonaviy tahlil metodlariga distributiv tahlil metodi, matematik tahlil metodlari, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi kabilar kiradi.

Distributiv tahlil metodi. Bu metod til birliklarining o'zaro joylashishi, ularning o'zaro birikish qonunlarini o'rganadi. Distributiv tahlil metodi til tizimining fonologik, morfologik va sintaktik birliklarini o'rganishda qo'llaniladi.

Til birliklarining distributsiyasi biror bir birlikning boshqa bir birlik bilan birikish usullari qayerda, qaysi holda va qanday qo'llanish doirasi yig'indisidan iborat, degan savollarga javob beradi. Bular distributiv tahlil metodining mohiyatini tashkil etadi.

Matematik tahlil metodlari. Til qurilishining tovush tarkibi, morfologik va sintaktik birliklari, grammatik qoidalar

sifat jihatidagina emas, miqdor jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Miqdor belgilarini o'rganishda matematik tahlil metodlari qo'llaniladi.

Til birliklarining matematik metod yordamida o'rganiladigan miqdor belgilarini uchga ajratadilar:

1. Nazariy to'plamlik belgilari.
2. Mantiq algebrasiga asoslangan transformatsion belgilar.
3. Ehtimollik belgilari.

Transformatsion yoki algoritm jihatdan tahlil qilish

til ifoda vositalari tizimini tasvirlashning aniq qoidalarini ko'rsatib berishdir.

Tabiiy tillarni tahlil qilish va tasvirlashda ikki xil qolip tuzish qoidalari ko'zda tutiladi:

a) bevosita tashkil etuvchilar bilan bajaradigan ishlar qoidalari,

b) transformatsion qolip tuzish.

Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi. Bu metod til birliklari orasidagi munosabat va ularning qanday joylanishini o'rganadi.

Tildagi eng kichik birlik fonema bo'lib, ular nutqda eng kichik segmentlarda namoyon bo'ladi. Fonemalarni tekshiruvchi pog'ona segmental fonologiya deb yuritiladi. Fonemalardan katta bo'lgan til birliklariga tegishli bo'lgan fonologik xususiyatlar suprasegmental fonologiyada tekshiriladi. So'zning fonologik tuzilishi va gapning intonatsiyasini o'rganishda ularni tashkil etuvchi birliklar o'rganiladi.

Bu metod gapning sintaktik qurilishini, gap bo'laklarining munosabatini va til birliklarini o'rganishda qanday qismlardan tuzilganligini aniqlashda yordam beradi.

Transformatsion tahlil metodining asosiy maqsadi tilda mavjud bo'lgan gaplarning yadro gaplardan tuzilganligini, ulardagi chuqur va yuzaki strukturalar munosabati o'rganiladi.

Transformatsion tahlil metodining barcha xususiyatlarini amerikalik olim Naum Xomskiy ochib bergan. Hozirgi tilshunoslikning sintaktik va stilistik tadqiqotlarida bu metod ko‘p ishlatiladi. Masalan: *Behzod o‘qigan kitob stol ustida turibdi*. Bu gapni transformatsiya qilsak quyidagicha bo‘lishi mumkin: *Behzod o‘qib chiqqan kitob stol ustida turibdi*. *Behzod tomonidan o‘qilgan kitob stol ustida turibdi* (*o‘qigan, o‘qib chiqqan, tomonidan o‘qilgan*).

Tilni ehtimollik belgilariga ko‘ra tahlil qilish til elementlarini statistik xarakteristikalar asosida baholash demakdir. Til birligining gapda qo‘llanish chastotasi ehtimollik deyiladi. Ehtimollik fonema, so‘z, so‘zlar guruhi, gaplarning qo‘llanishidagi tasodifiy o‘lchovidir.

Tanlanma matn asosida statistik xususiyatlarni o‘rganish natijasida chastotali lug‘atlar tuziladi.

Matematik tahlil metodlari tilshunoslikning yana ham takomillashishiga, shubhasiz, katta yordam ko‘rsatadi. Natijada kibernetika va elektron–hisoblash mashinasi bilan ishlashning ravnaq topishi avtomatik tahlil metodining shakllanishiga olib keldi. Bu metod tilni shunday shakliy qismlarga ajratadiki, bir tilning elementlari boshqa tilning shu ma‘nodagi shakliy elementlariga ekvivalent bo‘lishi lozim. Ekvivalentlik esa bir tildan boshqa tilga mashina yordamida tarjima qilish imkoniyatini beradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Metod va metodologiyaning farqi nimada?
2. An‘anaviy metodlar haqida gapiring?
3. Zamonaviy metodlarga qanday metodlar kiradi?
4. Barcha metodlar uchun tayanch bo‘‘ladigan metod qaysi?

Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010. –B.145-150.

2. Baskakov N va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. –B.117-131.

3. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 1981. –B. 192-194.

4.O‘rinboev B., Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. Ma’ruzalar matni. – Samarqand, 2004. –B.173-180.

5.Pardayev A. Tilshunoslik nazariyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 56-66.

“ Tilshunoslik nazariyasi” fanidan mustaqil ish mavzulari:

Har bir berilgan mavzu ko‘rsatilgan adabiyotlar asosida berilgan reja bo‘yicha mustaqil tarzda o‘zlashtiriladi.

1.“Tilshunoslik nazariyasi” fani maqsad va vazifalari

2. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiati.

3.Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni.

4. Tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqasi

5. Tilshunoslik va falsafa. Mentolingvistika.

6. Tilshunoslik va adabiyot. Lingvopoetika.

7.Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati. Etnolingvistika.

8.Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati. Sotsiolingvistika.

9.Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati. Psixolingvistika.

10. Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika.

11.Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqligi. Jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta’siri.

12. Tilning aloqa – munosabat, to‘plash va hissiy ta’siriy vazifalari.

13.Til va tafakkur.Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o‘zaro munosabati.

14.Til va madaniyat.

15. Til va nutq.

16. Til birliklarining alohida tizim sifatida o‘zaro mutanosibligi.

17.Til sistemasining o‘ziga xos xususiyatlari.

17. Belgining strukturasi, turlari.

18. Semiotik belgilarning turlari.
19. Lingvosemiotika - til belgisi haqidagi ta'limot.
20. Lisoniy belgining xususiyatlari.
21. Til sathlari tushunchasi
22. Fonetik sath nima?
23. Leksik sath nima?
24. Morfologik sath nima?
25. Sintaktik sath?

“ Tilshunoslik nazariyasi” fanidan oraliq nazorat savollari

Til va jamiyat. Sotsiolingvistika.

Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati.

Til va yozuv. Yozuvning tarixiy ahamiyati.

Dunyo tillari tavsifi va tasnifi.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.

“Tilshunoslik nazariyasi” fani mazmuni, maqsadi, vazifalari.

Til va nutq munosabati. Nutq faoliyati, og‘zaki va yozma nutq.

Til–ramzlar tizimi. Tilning semiotik tabiati.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi.

Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati.

Me‘yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Kreol tillar.

Pijin tillari.

Nutqning fonetik bo‘linishi.

Til sathlari. (Tilning fonetik-fonologik sathi, lug‘at sathi, grammatik sath). Morfologik va geneologik tasnif.

Til jarayonidagi fonetik o‘zgarishlar.

Til va tafakkur. Til fikr ifodasi va fikr manbai sifatida.

Tilshunoslik fanining tarmoqlari

Tilshunoslik va tabiiy fanlar munosabati

Til va uning ta‘rifi

Tilshunoslik fanining tarmoqlari

Dunyo tillari tavsifi va tasnifi.

Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati

Fraza. Takt. Sintagma.

Tilning ijtimoiy tabiati.

Tilshunoslikka doir terminlar mazmun, mohiyati.
Tilning semiotik tabiati.
Tilning fonetik sathi.
Til oilalari va til guruhlari.

“Tilshunoslik nazariyasi” fanidan test savollari

1. Ishlangan, me'yorlashtirish tirilganlik, barqarorlik, jamoaning hammasi uchun umumiylik va majburiylik tilning qaysi ko'rinishlari uchun xos ?

- A. Adabiy til
- B. Jonli so'zlashuv tili
- C. Xalq shevalari
- D. Koynelar

2. Ushbu belgilar tilning qaysi ko'rinishiga xos ? “
Ishlanmaganlik, umumiy va majburiylikka ega emaslik, yozma shaklga ega emaslik va hk ”

- A. So'zlashuv tili
- B. Adabiy tili
- C. Agro
- D. Jargon

3. Adabiy tildan tashqarida, ammo adabiy til boyitishga xizmat qiladi.

- A. So'zlashuv tili
- B. Atamalar
- C. Jargon va argolar
- D. Vulgar va varvarizmlar

4. “ buzilgan til ” ma'nosini bildiruvchi sotsiolingvistik birlik ...

- A. Jargon
- B. Agro
- C. Vulgar
- D. Varvarizm

5. Sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasida rivojlanayotgan fan ...

- A. Sotsiolingvistika

- B.Etnolingvistika
- C.Mentalingvistika
- D.Intralingvistika

6.A.Shleyxer qanday tillarni kristalga o‘xshatadi?

- A.Amorf tillar
- B.Ugor-fin tillar
- C.Turkiy tillar
- D.Flektiv tillar

7.A.Shlexer qanday tipdagi so‘zlarni o‘simlikka o‘xshatadi?

- A.Ugor-fin, turkiy tillar
- B.Ugor-fin, xitoy-tibet tillar
- C.Hind-Yevropa, xitoy-tibet tillari
- D.Turkiy, xitoy-tibet tillar

8. A.Shleyxer eng arxaik tillar deb qaysi tillarni aytadi?

- A.Amorf tillar
- B.Flektiv tillar
- C. Agglutinativ tillar
- D. Polisintetik tillar

9.A.Shleyxer o‘tkinchi davr tillar deb qaysi tillarni aytadi?

- A.Ugor-fin tillari, turkiy tillari
- B.Hind-Yevropa, xitoy-tibet tillari
- C.Ugor-fin, kavkaz tillari
- D.Xom-som tillari, xitoy-tibet tillari

10.A.Shleyxer eng rivojlangan , taraqqiy etuvchi tillarga qaysi tillarni kiritadi?

- A.Flektiv tillar
- B.Agglutinativ tillar
- C. Polisintetik tillar
- D.Amorf tillar

11.Adabiy til normasiga ega bo‘lgan tillar...

- A.Standart tillar
- B.Klassik tillar
- C.Kreol tillar
- D.Mahalliy tillar

12.Unga bir qancha tillar aralashmasi natijasida hosil boʻlgan tillar kiradi.

- A.Kreol tillar
- B.Klassik tillar
- C.Sunʼiy tillar
- D.Pejin tillar

13.L.Zamengov tomonidan yaratilgan sunʼiy til nima deb nomladi?

- A.Esperanto
- B.Volyapyuk
- C.Ido
- D.Interlingvo

14.Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning chatishuvidan hosil boʻlgan tillar nima deb nomlanadi?

- A.Pejin
- B.Kreol
- C.Mahalliy
- D.Sunʼiy

15.Oʻz yozuviga ega boʻlmagan kichik millatlarga xizmat qiluvchi tillar nima deb nomlanadi?

- A.Mahalliy tillar
- B.Qabila tillari
- C.Kreol tillar
- D.Pejin tillar

16.Maxsus yaratilgan xalqaro aloqa tillari nima deb nomlanadi?

- A.Sunʼiy tillar
- B.Kreol tillar
- C.Pejin tillar
- D.Klassik tillar

17.Esperanto, ido, volyapyuk, oksidental, interlingvo, neo tillari qanday tillar sanaladi?

- A.Sunʼiy tillar
- B.Kreol tillar
- C.Pejin tillar

D.Mahalliy tillar

18.Adabiy til me'yoriga ega bo'lgan, jamiyatda davlat tili, adabiy til sifatida xizmat qiluvchi tillar qanday nomlanadi?

A.Standart tillar

B.Klassik tillar

C.Adabiy tillar

D.Milliy tillar

19.Buyuk asarlar yaratilgan, ammo davr o'tishi bilan o'lik tillarga aylangan tillar nima deb nomlanadi?

A.Klassik tillar

B.Adabiy tillar

C.Milliy tillar

D.Standart tillar

20.Til va jamiyat munosabatida tilning qaysi sathi muhim o'rin tutadi.

A.Leksik sath

B.Fonetik sath

C.Morfologik sath

D. Sintaktik sath

21.Faqat kommunikatsiya-aloqa qilish uchun moslangan tillar...

A.Sun'iy tillar

B.Kreol tillar

C.Mahalliy tillar

D.Pijin tillar

22.Klassik tillar qatorini ko'rsating.

A.Lotin va Yunon tillari

B.Hind va Eron tillari

C.Ingliz va Rus tillari

D.Xitoy va Arab tillari

23.Ijtimoiy o'zgarishlarga eng sezgir sath...

A.Leksik sath

B. Fonetik sath

C.Morfologik sath

D.Sintaktik sath

24.Ko‘p vazifali, umummajburiy, me‘yorlashgan til...

A. Adabiy til

B.Uzus

C. Milliy til

D. So‘zlashuv tili

25.Adabiy til, og‘zaki til dialektlarni o‘zida jamlagan atama...

A.Milliy til

B.Standart til

C.Lahja

D.Jonli so‘zlashuv tili

26.Tillarning tipologik tasnifida qanday tillarni amorf tillar deb ataymiz?

A.So‘z tarkibida yordamchi morfemalar ishlatilmaydigan tillarni

B.yordamchi morfemalarning o‘zakka birikishi va bunda o‘zakda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmaydigan tillarni

C.o‘zak va yordamchi morfemalar birikuvida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradigan tillarni

D.o‘zak va yordamchi morfemalar birikkanda, so‘z-gap yagona tuzilmasi hosil bo‘ladigan tillarni

27.Tillarning tipologik tasnifida qanday tillarni agglyutinatив tillar deb ataymiz?

A.yordamchi morfemalarning o‘zakka birikishi va bunda o‘zakda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmaydigan tillarni

B.o‘zak va yordamchi morfemalar birikuvida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradigan tillarni

C.o‘zak va yordamchi morfemalar birikkanda, so‘z-gap yagona tuzilmasi hosil bo‘ladigan tillarni

D.So‘z tarkibida yordamchi morfemalar ishlatilmaydigan tillarni

28.Tillarning tipologik tasnifida qanday tillarni flektiv tillar deb ataymiz?

A.o‘zak va yordamchi morfemalar birikuvida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradigan tillarni

B.yordamchi morfemalarning o‘zakka birikishi va bunda o‘zakda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmaydigan tillarni

C.o‘zak va yordamchi morfemalar birikkanda, so‘z-gap yagona tuzilmasi hosil bo‘ladigan tillarni

D.So‘z tarkibida yordamchi morfemalar ishlatilmaydigan tillarni

29.Tillarning tipologik tasnifida qanday tillarni polisintetik tillar deb ataymiz?

A.o‘zak va yordamchi morfemalar birikkanda, so‘z-gap yagona tuzilmasi hosil bo‘ladigan tillarni

B.So‘z tarkibida yordamchi morfemalar ishlatilmaydigan tillarni

C.o‘zak va yordamchi morfemalar birikuvida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradigan tillarni

D.yordamchi morfemalarning o‘zakka birikishi va bunda o‘zakda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmaydigan tillarni

30.Amerika hindulari tillari va Osiyodagi chukot, koryak singari tillar qanday tillarga kiradi?

A.polisintetik tillar

B.flektiv tillar

C.amorf tillar

D.agglyutativ tillar

31.Qadimgi Mesopotamiyada qo‘llanilgan mixxat yozuvi qanday yozuvning bir ko‘rinishi hisoblanadi?

logografik yozuv

Piktografik yozuv

buyumli yozuv

Fonografik yozuv

32.inson-madaniyat-til» munosabatlarini o‘rganadigan yo‘nalish nima deyiladi?

A.Lingvokulturologiya

B.Lingvopraksiologiya

C.Lingvosotsiologiya

D.Lingvognoseologiya

33.Tilning bilish faoliyatidagi vazifasini o‘rganish, insonning voqelik bilan munosabatining til bilan bog‘liq tomonlarini aniqlashni o‘rganadigan yo‘nalish nima deyiladi?

A.Lingvognoseologiya

B.Lingvokulturologiya

C.Lingvopraksiologiya

D.Lingvosotsiologiya

34.Til va jamiyat aloqasini tadqiq qilishni o‘rganadigan yo‘nalish nima deyiladi?

A.Lingvosotsiologiya

B.Lingvognoseologiya

C.Lingvokulturologiya

D.Lingvopraksiologiya

35.til va shaxs munosabati muammosini o‘rganadigan yo‘nalish nima deyiladi?

A.Lingvopsixologiya

B.Lingvosotsiologiya

C.Lingvognoseologiya

D.Lingvokulturologiya

36.Qanday munosabat yordamida tilning bosh vazifasi – kommunikativ vazifasi amalga oshadi?

A.Sintagmatik munosabat

B.Po‘g‘onali munosabat

C.Uyadoshlik munosabati

D.paradigmatik munosabat

37.Murakkablik darajasi turli xil bo‘lgan, ikki xil sathga mansub lisoniy birliklar munosabati qanday munosabat sanaladi?

A.Po‘g‘onali munosabat

B.Uyadoshlik munosabati

C.paradigmatik munosabat

D.Sintagmatik munosabat

38.Ichki tuzilish birliklarning o‘zaro munosabati asosida vujudga kelgan butunlikni ifodalaydigan atama...

A.Tizim atamasi

B.struktura atamasi

C.Divergensiya atamasi

D.Konvergensiya atamasi

39.Butunlikning ichki tuzilishini ontologik tabiatini ifodalaydigan atama...

A.struktura atamasi

B.Divergensiya atamasi

C.Konvergensiya atamasi

D.Tizim atamasi

40.Til birligining turli-tuman o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan shakli nima deyiladi?

A.Variant

B.Invariant

C.Sinonim

D.Ekvipolent

41.Til birligining bevosita kuzatishda bir necha variantlar orqali moddiylashishgan shakli nima deyiladi?

A.Invariant

B.Sinonim

C.Ekvipolent

D.Variant

42.Loticha "o'zgaruvchi" degan ma'noni bildiradigan so'z...

A.Variant

B.Invariant

C.Sinonim

D.Ekvipolent

43.Bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o'zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik nima deyiladi?

A.Tizim

B.Struktura

C.Variant

D.Invariant

Til vazifasi nuqtai nazaridan...

A.Kishilarning eng muhim aloqa vositasi sanaladi.

B.ayrim birliklar va bu birliklardan foydalanish qoidalari yig'indisi sanaladi.

C.belgilar tizimi sanaladi

D.mazmuniy axborotni kodlashtirish uchun xizmat qiladigan kodlar tizimi sanaladi.

44.Til qurilish mexanizmi nuqtai nazaridan...

A.ayrim birliklar va bu birliklardan foydalanish qoidalari yig'indisi sanaladi.

B.Kishilarning eng muhim aloqa vositasi sanaladi.

C.belgilar tizimi sanaladi

D.mazmuniy axborotni kodlashtirish uchun xizmat qiladigan kodlar tizimi sanaladi.

45.Til semiotik nuqtai nazardan...

A.belgilar tizimi sanaladi

B.ayrim birliklar va bu birliklardan foydalanish qoidalari yig'indisi sanaladi.

C.Kishilarning eng muhim aloqa vositasi sanaladi.

D.mazmuniy axborotni kodlashtirish uchun xizmat qiladigan kodlar tizimi sanaladi.

46.Til axborot uzatish nuqtai nazaridan...

A.mazmuniy axborotni kodlashtirish uchun xizmat qiladigan kodlar tizimi sanaladi.

B.belgilar tizimi sanaladi

C.ayrim birliklar va bu birliklardan foydalanish qoidalari yig'indisi sanaladi.

D.Kishilarning eng muhim aloqa vositasi sanaladi.

47.Predikativ belgini o'zida ifoda etuvchi butunlik sanalib, shaxs (personallik), zamon (temporallik), modallik va tasdiq-inkorlik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan birlik...

A.Gap

B.So'z

C.Matn

D.So'z birikmasi

48.Morfologik sath birligi sifatida ikki va undan ortiq morflarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlikni toping.

A.So‘z

B.Matn

C.So‘z birikmasi

D. Morfema

49.Ikki va undan ortiq fonlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlikni toping.

A.Morfema

B.So‘z

C.Matn

D.So‘z birikmasi

Fonlar, allofonlar yoki tovushlar orqali voqelanadigan birlik...

A.Fonema

B.Leksema

C.Morfema

D.Grafema

50.Tilning umumiy lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘lim...

Leksikologiya

Leksikografiya

Semasiologiya

Parameologiya

51.Shakl va mazmun tomonlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan va bu munosabat til egalari xotirasida lokallashgan birlik...

Leksema

So‘z

Nomema

Semema

52.Tildan tashqaridagi predmetlar, hodisalar, xususiyatlarni aks ettiruvchi nosintaktik, masalan, miqdor, makon, zamon kabi va gap hamda so‘z birikmasi tarkibidagi so‘z shakllarining aloqasini bildiruvchi sintaktik ma’nolarga bo‘linishi va

ma'noni muayyan moddiy vositalar yordamida ifodalashi nima deyiladi?

Grammatik ma'no

Grammatik kategoriya

so'z shakl

Lug'aviy ma'no

semema va nomemalarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan til birligi...

Leksema

So'z

Morfema

Semema

53.Leksemalardan boshqa birliklarni ham, ya'ni atash semasiga ega bo'lmagan birliklarni ham o'z ichiga oladigan til birligi...

So'z

Leksema

Morfema

Semema

54.So'zning obyektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma'lumoti nima deyiladi?

Atash sema

Ifoda sema

Chegara sema

Vazifaviy sema

55.Har qanday vaziyat turli elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan bir butunlik ...

Sistemadir

Strukturadir

Vaziyatdir

So'z shakldir

56.Til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi tizimiga nima deyiladi?

Paradigma

Sintagma

Variant

Invariant

57.Qaysi atama yunoncha soʻz boʻlib, “misol, namuna” , degan maʼnoni anglatadi?

Paradigma

Sintagma

Variant

Invariant

58.Qaysi atama yunoncha soʻz boʻlib, “birlashgan narsa” , degan maʼnoni anglatadi?

Sintagma

Variant

Invariant

Paradigma

59.Nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik-sintaktik birligi nima deyiladi?

Sintagma

Variant

Invariant

Paradigma

60.Til birliklarining nutq oqimida yuz beradigan xususiyatlari asosidagi munosabatlari nima deyiladi?

Sintagmatik munosabat

Paradigmatik munosabat

shakliy sintagmatik munosabat

mazmuniy sintagmatik munosabat

61.Matematik tilshunoslik termini nechanchi yillarda muomalaga kirgan?

A.oʻtgan asrning 50-yillarida

B.oʻtgan asrning 40-yillarida

C.oʻtgan asrning 60-yillarida

D.oʻtgan asrning 70-yillarida

62. Matematika fanining ta'siri natijasida tilshunoslikda keng qo'llanilayotgan metod ...

- a. statistik metod
- b. Tavsifiy metod
- c. struktur metod
- d. mantiqiy grammatik metod

63. Borliqning (voqelikning) ma'lum bir bo'lagi, birligi (elementi) haqida shu turdagi bilimlarni hosil qilishga qaratilgan insoniy faoliyat turi nima deyiladi?

- A. Ilmiy tadqiq
- B. Ilmiy tadqiq metodikasi
- C. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi
- D. Metodologiya

64. Tadqiqotchining izlanishga qanday yondashishi, o'rganish ob'ektini qanday tushunishi, unga qaysi nuqtai nazardan turib yondashishiga nima deyiladi?

- A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi
- B. Ilmiy tadqiq
- C. Ilmiy tadqiq metodikasi
- D. Bilish faoliyati

65. Tipologik umumiyliklar (lingvistik universalialar) tahlil metodi

- Distributiv tahlil metodi
- Struktur metod
- Sinxronik formal tavsifiy metod

66. Bu metodda tahlilning birinchi bosqichi jumlaning eng kichik qismlarga ajratish – segmentlashdan boshlanadi. Qaysi metod haqida gap bormoqda?

- A. Distributiv tahlil metodi
- B. Struktur metod
- C. Sinxronik formal tavsifiy metod
- D. Distributiv tahlil metodi

66. Asosan morfologiya va sintaksis doirasida qo'llaniladigan metod...

- A. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi

- B.Differensial tahlil metodi
- C.Komponent tahlil metodi
- D.Transformatsiyalash (aylantirish) metodi

67.Har xil katta-kichiklikdagi matnlarda ayrim-ayrim lisoniy hodisalarning (tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, olinma va o‘zlashmalar, yangi va eskirayotgan so‘z va qo‘shimchalar, har xil qurilmalar) qo‘llanilish miqdorini aniqlash uchun qo‘llaniladigan metodni toping.

- A.Statistik tahlil metodi
- B.Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi
- C.Differensial tahlil metodi
- D.Komponent tahlil metodi

“Tilshunoslik nazariyasi” fanidan

Glossariy

Fonetik-fonologik sath - til iyerarxiyasining tovush tizimidan iborat quyi pog‘onasi (quyi yarusi): nutq tovushlari, bo‘g‘in,urg‘u, ohang va b.lar.

Leksik sath - til iyerarxiyasining lug‘at boyligidan iborat yuqori pog‘onasi: so‘zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.

Grammatik sath - til iyerarxiyasining morfologik va sintaktik birliklardan iborat eng yuqori pog‘onasi: so‘z turkumlari, grammatik ma‘no va grammatik shakllar, so‘z birikmalari va gap, ularning turlari va konstruksiya modellari.

Vokalizm - unli fonemalar tizimi.

Konsonantizm - undosh fonemalar tizimi.

Divergensiya - til strukturasidagi o‘zgarishlar ta’sirida bir fonemaning ikki fonemaga bo‘linishi. Mas."k"ning "k"va "q"ga ajralishi.

Konvergensiya - tarixiy taraqqiyot natijasida ikki fonemaning bir fonema holiga kelishi: qadimgi turkiy va eski o‘zbek tillarida alohida-alohida fonemalar bo‘lgan "θ" va "o" unlilari shu qonuniyat asosida HOZIRGI O‘ZBEK TILIda bitta "o" fonemasiga birlashgan.

Pozision xususiyatlar - nutq tovushlarining soʻz tarkibidagi oʻrni (unlining urgʻuli yoki urgʻusiz boʻgʻinda, undosh tovushning kuchli yoki kuchsiz pozisiyada boʻlishi), shu omil taʼsirida yuz beradigan hodisalar.

Sintagmatik xususiyat - soʻz yoki boʻgʻin tarkibida tovushlarning zanjirsimon joylashuvi, birin-ketin kelishi, gorizontal chiziq boʻylab joylashuvidan kelib chiqadigan xususiyatlar.

Singarmonizm - soʻzning asosi va affiks tarkibidagi unlilarning oʻzaro uygʻunlashuvi, garmoniyasi.

Sheva – muayyan tilning oʻziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega boʻlgan eng kichik qismi.

Lahja - fonetik, leksik va grammatik umumiylik asosida birlashgan shevalar yigʻindisi. U dialekt nomi bilan ham ataladi.

Fonetika - tilshunoslikning fonetik birliklar, ularning fizik-akustik va h.k. xususiyatlari haqida maʼlumot beruvchi boʻlimi.

Segment birliklar - soʻz yoki morfema tarkibida (yoki nutq oqimida) gorizontal chiziq boʻylab birin-ketin keladigan birliklar: nutq tovushi, boʻgʻin, fonetik soʻz, takt, fraza.

Supersegment birliklar - urgʻu, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar, ular soʻzga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador boʻlishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

Shakllantiruvchi vazifa – fonetik birliklarning "qurilish materiali", leksema yoki morfemalarning ifoda planidagi moddiy asos sifatidagi vazifalari.

Tanituvchi vazifa - fonetik birliklarning soʻz qiyofasini "tanib olish" va shu orqali soʻzning maʼnosini "eslab qolish" uchun xizmat qilishi.

Fonetik soʻz - nutq tovushlarining maʼlum tartibda joylashuvidan tarkib topgan soʻzning fonetik qiyofasi, leksemaning ifoda plani.

Umumiy fonetika - fonetikaning barcha tillarga xos umumnazariy masalalari haqida maʼlumot beruvchi turi.

Xususiy fonetika - fonetikaning muayyan bir til tovush-lari, ularning turlari, fizik-akustik va artikulyasion xususiyatlari xususida bahs yurituvchi turi.

Tarixiy fonetika - xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan til tovush tizimini diaxron planda va dinamik holatda (tarixiy taraqqiyotda) o'rganadi.

Tavsifiy fonetika - xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan tilning fonetik tizimini statika holatida (til taraqqiyotining oldingi bosqichlarida yuz bergan hodisalar bilan bog'lamay) o'rganadi.

fiyosiy fonetika – qardosh yoki noqardosh tillarning tovush tizimlarini qiyoslab o'rganadigan fonetika.

Eksperimental (instrumental) fonetika - nutq tovushlari, urg'u kabi birliklarning fizik-akustik va artikulyasion xususiyatlarini maxsus asboblarda vositasida o'rganadigan fonetika.

Tovushning fizik-akustik tabiati - tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi, ularning eshitilish xususiyatlari.

Gers - tebranayotgan jismning (mas., un paychalari) tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi. Ovozning past yoki balandligi gerslar miqdori bilan belgilanadi.

Infratovush - 16 gersdan kam chastotali tovush.

Ultratovush – 20000 gersdan ortiq chastotali tovush.

Tovushning balandligi – tovushning un paychalari tebranishi chastotasiga bog'liq sifati.

Tovushning kuchi - 1sm² maydondan 1sekundda o'tadigan energiya miqdori. U desibel bilan o'lchanadi.

Tovush tembri - tovushning asosiy ton (ovoz) va yordamchi tonlar (obertonlar) qo'shilmasidan tarkib topuvchi sifati.

Formantlar - tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar.

Spektograf - tovush formantlarini aniqlovchi maxsus apparat.

Tovush cho'ziqligi - tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi.

Tovushning sifat belgilari - tovushning balandligi, kuchi (intensivligi), tembri.

Tovushning miqdor belgisi - _tovushning cho‘ziqligi.

Nafas apparati - havo manbai. Bu apparat o‘pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko‘krak qafasi kabi a‘zolaridan iborat.

Bo‘g‘iz bo‘shlig‘i - traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalari va bir qancha tog‘aylar mavjud. Bo‘g‘iz bo‘shlig‘i ovoz manbai hisoblanadi (un paychalari tebranishidan ovoz hosil bo‘ladi).

Halqum - bo‘g‘izdan yuqoriroqdagi bo‘shliq. U rezonatorlik vazifasini bajaradi.

Og‘iz bo‘shlig‘i - til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglaylar, til osti muskullaridan iborat apparat. U shovqin va qo‘shimcha tonlar manbai sanaladi.

Burun bo‘shlig‘i - qo‘shimcha ton manbai.

Nutq a‘zolarining fiziologiyasi - nutq a‘zolarining hayotiy kechimlari, muhit bilan munosabatlari.

Brok markazi - bosh miya qobig‘idagi markaziy nerv sistemasiga kiruvchi nerv xujayralarining bir turi. U nutqning yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan nerv markazi hisoblanadi.

Eshituv markazi - bosh miya qobig‘i tizimiga kiruvchi nerv xujayralarining yana bir turi. U eshitish a‘zolaridan keladigan ta‘sirni idrok etadigan nerv markazi sanaladi.

Artikulyasiya - nutq a‘zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi harakati va holati.

Artikulyasiya bazasi - til egalarida shu tilga xos artikulyasiyani amalga oshirish uchun shakllangan psixologik va fiziologik ko‘nikmalar.

Ekskursiya - artikulyasiyaning birinchi bosqichi.

O‘rta holat (ish holati) - artikulyasiyaning ikkinchi bosqichi.

Rekursiya - artikulyasiyaning uchinchi bosqichi (talaffuzning qaytishi).

Perseptiv aspekt - fonetikaning eshitish va his etish bilan bog‘liq jarayonlarini o‘rganuvchi aspekti.

Lingvistik-funksional aspekt - fonetikaning yuqori bosqichi. U fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, ijtimoiy mohiyatini o'rganadi.

Fonemalarning differensial belgilari - o'zaro qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

Fonemalarning integral belgilari - o'zaro qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

Fonologik oppozisiya - differensial belgilar asosida ikki fonemaning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi (fonologik zidlanish).

Gradual oppozisiya - pog'onali zidlanish.

Korrelyasiya - bir farqlanish belgisi asosida tarkib topgan ikki va undan ortiq oppozisiyalar qatori.

Artikulyasiya o'rni - talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi yoki shu a'zoning faol ishtirok etayotgan qismi.

Artikulyasiya usuli – nutq a'zolari hosil qilgan to'siqdan havo oqimining portlab, sirg'alib yoki titrab o'tishi.

Lug'aviy birliklar – so'z va iboralar (leksema va frazemalar).

Lisoniy omillar (lingvistik faktorlar) – tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar.

Nolisoniy omillar (ekstralingvistik faktorlar) – til taraqqiyotiga (shu jumladan, leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tuzum, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot-san'at va boshqalar.

Umumiy leksikologiya – leksikologiyaning barcha (yoki ko'pchilik) tillar lug'at boyligi taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatlarni aniqlash va yoritish bilan shug'ullanuvchi turi

Xususiy leksikologiya – leksikologiyaning muayyan bir til lug'at boyligi haqida ma'lumot beruvchi turi.

Tavsifiy leksikologiya – ayrim olingan bir tilning lug'at boyligini shu til leksikasining avvalgi taraqqiyoti bilan bog'lamay o'rganadigan leksikologiya.

Tarixiy leksikologiya – ayrim olingan bir tilning lugʻat boyligini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bogʻlab oʻrganadigan leksikologiya.

Semasiologiya – leksik birliklarning semantik tarkibi va u bilan bogʻliq masalalarni oʻrganuvchi soha.

Onomasiologiya – leksik birliklarni nomlash va tushuncha anglatish prinsiplari hamda qonuniyatlari haqida maʼlumot beruvchi soha.

Etimologiya – tilshunoslikning soʻz va morfemalarning kelib chiqishini oʻrganuvchi boʻlimi.

Leksik maʼno – leksemaning nimanidir nomlashi, atashi, anglatishi.

Fonetik soʻz – leksemaning fonetik qiyofasi, nomi.

Denotat - leksema tomonidan nomlangan narsa-predmet, voqyelik.

Referent – til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti.

Signifikat – til birligi ifodalaydigan maʼno.

Valentlik – leksemaning birikma yoki gap tarkibida boshqa leksemalar bilan aloqaga kirisha olish xususiyatlari.

Tushuncha – obyektiv borliqdagi predmet yoki hodisalarning inson miyasida aks etgan umumiy tasavvuri.

Turkumlik semalari – leksik maʼnoga tayangan holda leksemalarning grammatik maʼnolarini belgilaydigan, shu asosda leksemalarning soʻz turkumlariga uyushishini taʼminlaydigan semalar.

Uzual maʼno – leksemaning semantik tarkibida bor boʻlgan leksik maʼno.

Okkazional maʼno – leksemaning tildagi maʼnosiga xos boʻlmagan, ayrim shaxsning leksik qoʻllashi natijasida yuzaga keltirilgan sunʼiy maʼnosi.

Leksik qoʻllash – leksemaning okkazional (nutqiy) maʼnoda qoʻllanishi.

Bosh maʼno – leksemaning semantik tarkibidagi hosila maʼnolarning oʻsib chiqishiga asos boʻlgan maʼno.

Hosila maʼno – bosh maʼnodan taraqqiy etib chiqqan maʼno.

Eski leksik ma'no – leksemaning hozirgi paytda arxaiklashib qolgan ma'nosi.

Etimologik leksik ma'no – leksemaning kelib chiqishida uning mazmun planiga asos bo'lgan dastlabki ma'no. U ma'no etimoni deb ham ataladi.

Shakl etimoni – leksemaning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qilgan dastlabki shakl.

Sinonimiya – leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishi.

Sinonimik qator (sinonimik uya) – bir ma'no anglatishiga ko'ra guruhlangan sinonim so'zlar yilindisi.

Dominanta – sinonimik qatordagi betaraf ma'noli so'z.

Ma'no sinonimlari – bir umumiy ma'noga ega bo'lsa-da, ma'no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.

Uslubiy sinonimlar – leksik ma'nolari ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.

Nutqiy sinonimlar – nutqning u yoki bu turiga xoslanganligi bilan farqlanadigan sinonimlar.

Omonimiya – til birliklarining ifoda planidagi tenglik hodisasi.

Leksik omonimiya – omonimiya hodisasining leksemalar doirasidagi ko'rinishi.

Omoformalar – ayrim grammatik shakllari o'zaro teng bo'lgan leksemalar.

Omofonlar – talaffuzi bir xil , yozilishi har xil bo'lgan leksemalar.

Omograflar – yozilishi bir xil , talaffuzi har xil bo'lgan leksemalar.

Paronimiya – ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi.

Kvaziomonimlar – bir fonemasi bilan farqlanadigan ikkita so'z (minimal juftlik).

So'z variantlari – bir leksemaning tildagi turli ko'rinishlari.

Paronomaziya – jonli so'zlashuvda paronim so'zlarni qorishtirish hodisasidan badiiy nutqda uslubiy maqsadlarda foydalanish.

O‘z qatlam - o‘zbek tili leksikasining umumturkiy va sof o‘zbekcha so‘zlardan iborat qismi.

O‘zlashgan qatlam – boshqa tillardan olingan leksik o‘zlashmalar qatlami.

Umutturkiy so‘zlar - o‘zbek tili lug‘at boyligidagi eng qadimgi lug‘aviy birliklar.

So‘z o‘zlashtirish – boshqa til so‘zlarining o‘zbek tiliga olinishi.

O‘zicha olish – boshqa til leksemasining o‘zgarishsiz yoki juz‘iy o‘zgarish bilan o‘zlashtirilishi.

Kalkalab olish – boshqa tildagi so‘zning morfemik tarkibidan qismla-qism nusxa ko‘chirish orqali so‘z yasalishi, bu so‘zda boshqa til leksemasi ma’nosining ifodalanishi.

Semantik kalka – tilda azaldan mavjud bo‘lgan so‘zga boshqa til leksemasining ma’nosini yuklash.

Umumxalq lug‘aviy birliklar – ishlatilish doirasi chegaralanmagan so‘z va iboralar.

Dialektizmlar - qo‘llanishi territoriyaga ko‘ra chegaralangan til birliklari.

Dialektizm-so‘z – shevaga xos so‘z.

Dialektizm-ma’no – so‘zning shevadagi ma’nosi.

Fonetik dialektizmlar – dialekt yoki shevaga xos fonetik birliklar tizimi.

Leksik-fonetik dialektizm – adabiy tilda bor bo‘lgan so‘zning biror shevadagi fonetik tarkibi.

Grammatik dialektizmlar – biror shevaning o‘zigagina xos (adabiy tildagidan o‘zgacha) grammatik shakllari.

Kasb-hunar leksikasi – ijtimoiy mehnatning, ilm-fan yoki san’atning, ishlab chiqarishning u yoki bu turiga mansub maxsus tushunchalarning nomlari.

Professionalizmlar – kasb-hunar leksikasining o‘zi.

Terminlar - professional leksikaning ilm-fanga, texnikaga, adabiyot yoki san’atga oid bir turi.

Argotizmlar – yashirin ma’noli so‘zlar.

Jargonizmlar – yashirin ma’no bilan birga tinglovchini yoki o‘zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatini bo‘rttirib baholash xususiyatiga ega so‘zlar.

Vulgarizmlar - haqorat ma’nosida qo‘llanadigan so‘zlar.

Leksik istorizmlar - o‘tmish voqyeligining nomlari.

Leksik arxaizmlar - hozirgi paytda bor bo‘lgan voqyelikning eskirgan nomi yoki hozirgi tilda mavjud bo‘lgan leksemaning eskirgan ma’nosi.

Arxaizm-leksema – leksik arxaizmning bir turi. Unda leksema yaxlit holda eskirgan bo‘ladi.

Arxaizm-semema – leksik arxaizmning ikkinchi turi. Bunda leksema yaxlit holda emas, qisman (semantik tarkibidagi ma’nolaridan biri) eskiradi.

Leksik-fonetik arxaizm – talaffuz arxaizmi. Bunda leksemaning tovush tarkibida qisman eskirish yuz beradi.

Leksik neologizm – yangilik bo‘yog‘i bor bo‘lgan leksemalar.

Individual nutq neologizmi – ayrim shaxs nutqida voqye bo‘lgan neologizm.

Umumtil neologizmi – nutqiy hodisadan til hodisasiga aylangan neologizm.

Neologizm-leksema – yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan leksema.

Neologizm-semema – tilda azaldan mavjud bo‘lgan leksemaning semantik tarkibida yangi paydo bo‘lgan ma’no (semema).

Uslubiy bo‘yoq - so‘zning leksik ma’nosiga qo‘shimcha tarzda orttirilgan uslubiy ottenka, ifoda semasi.

Emosional-ekspressivlik – ekspressiyaga (ta’sir-chanlikka) egalik.

Emosional-ekspressivlikni ifodalashning leksik usuli- nutqda uslubiy bo‘yoli bor bo‘lgan so‘zning qo‘llanishi hisobiga ta’sirchanlikning ifodalanishi.

Emosional-ekspressivlikni ifodalashning affik-syasiya usuli- betaraf ma’noli so‘zlarga subyektiv baho ifodalovchi affikslarni qo‘shish orqali nutqda ta’sirchanlikka erishish.

Emosional-ekspressivlikni ifodalashning kon-tekstual usuli - uslubiy bo'yoli bo'lmagan so'zning ma'lum kontekst ta'sirida uslubiy bo'yoqdor so'zga aylantirilishi orqali nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

Emosional-ekspressivlikni ifodalashning fonetik usuli- turli fonetik hodisalar (geminasiya, unlilarni cho'zish, urluning o'rnini o'zgartirish) hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

So'zni metaforik qo'llash - so'zning metafora usulida ko'chirilgan ma'nosi hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

Frazeologik monosemiya – frazemalarda bir ma'nolilik hodisasi.

Frazeologik polisemiya – frazemalarda ko'p ma'nolilik hodisasi.

Frazeologik butunlik – frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosini shu frazema tarkibidagi so'zlar ma'nolari bilan izohlash mumkin bo'lgan ibora.

Frazeologik chatishma – frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi shu frazema tarkibidagi so'zlar ma'nolari bilan izohlanmaydigan ibora.

Frazeologik omonimiya – omonimlar doirasidagi shakliy tenglik hodisasi.

Frazeologik paronimiya – tarkibidagi birorta leksema bilangina farqlanuvchi frazemalar.

Omofrazemalar – shaklan teng bo'lgan frazemalar.

Parafrazemalar – paronimik munosabatda bo'lgan frazemalar.

Frazeologik sinonimlar – bir ma'no asosida birlashgan sinonimlar.

Uslubiy bo'yoq - frazemalarning ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi semalari.

Frazeologik variyasiya – bitta frazemaning ikki xil ko'rinishi.

Leksik-frazeologik sinonimlar – so'z va frazemalar o'rtasidagi ma'no birligiga asoslangan sinonimlar.

Leksik-frazeologik antonimlar – so'z va frazema orasidagi ma'no ziddiyatiga asoslangan antonimlar.

O'z qatlam frazemalari - o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan frazemalar.

O'zlashgan qatlam frazemalari – boshqa tillardan kalka usulida yoki o'zicha (o'zgarishsiz) o'zlashtirilgan frazemalar.

Dialektizm-frazema – biror dialekt yoki shevaga mansub frazema.

Istorizm-frazema - o‘tmish voqyeligiga asoslangan frazema.

Arxaizm-frazema - hozirgi o‘zbek tilida sinonimi bor bo‘lgan eskirgan frazema.

Neologizm-frazema – yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotmagan neologizm.

Leksikografiya – tilshunoslikning lug‘atchilik bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

Ensiklopedik lug‘atlar – tabiat va jamiyatdagi muhim hodisalar, tarixiy-ilmiy voqyeliklar, buyuk shaxslar haqida ma‘lumot beruvchi lug‘at tiplari.

Lisoniy lug‘atlar – til birliklari, til tizimiga xos kategoriyalar haqida ma‘lumot beruvchi lug‘atlar.

Universal ensiklopediyalar – tabiat va jamiyatning barcha sohalariga oid muhim voqyelik-hodisalar haqida ma‘lumot beruvchi qomusiy lug‘atlar.

Soha ensiklopediyalari – faqat bir sohaga oid ma‘lumotlar beriladigan qomusiy lug‘atlar.

Bir tilli lug‘atlar – bir til materialiga asoslangan lug‘atlar.

Ko‘p tilli lug‘atlar – bir necha til materiallariga asoslangan lug‘atlar.

Izohli lug‘atlar – so‘z ma‘nolari izohlangan, sharhlangan lug‘atlar.

Izohsiz lug‘atlar – so‘z yoki termin ma‘nolari izohlanmagan lug‘atlar.

Terminologik lug‘atlar – u yoki bu sohaga oid terminlar haqida ma‘lumot beruvchi lug‘atlar.

Tashqi tartib – lug‘atlarda so‘zning (lug‘at maqolasining) alifbodagi harflar tartibida joylashtirilishida shu so‘z (maqola) boshidagi birinchi harfga asoslanish.

Ichki tartib – lug‘atlarda bir xil harf bilan boshlangan so‘zlarning (maqola nomlarining) ikkinchi, uchinchi va keyingi harflariga, shu harflarning alifbodagi tartib o‘rniga asoslanish.

MUNDARIJA

Soʻzboshi.....	3
1-mavzu: “Tilshunoslik nazariyasi” fani, uning predmeti, maqsad va vazifalari.....	5
2-mavzu: Til – ijtimoiy hodisa sifatida. Til va tafakkur. Til va nutq munosabati.....	19
3-mavzu: Til va jamiyat.....	30
4-mavzu:Til va yozuv.....	41
5-mavzu: Til tizimi va tuzilishi. Til tizimi birliklari. Til sathlari tushunchasi.....	45
6-mavzu. Til ramzlar tizimi. Tilning semiotik tabiati.....	59
7-mavzu:Dunyo tillari tasnifi va tavsifi.....	63
8-mavzu: Tillarni ilmiy tadqiq etish metodlari.....	72
“Tilshunoslik nazariyasi” fanidan test savollari.....	81
Glossariy.....	92

O.Yusupova

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI
(Uslubiy qo‘llanma)

Muharrir: M. Ro‘ziboyev
Musahhih: G. Rahimova
Texnik muharrir: B. Egamberdiyev

ISBN 978-9943-5368-0-7

2008 yil 19-iyun 68-buyruq.

2018 yil 22-avgustda noshirlik bo‘limiga qabul qilindi.

2018 yil 30-avgustda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x84/ 1,16. «Times New Roman» garniturasida.

Ofset qog‘ozida. Shartli bosma tabog‘i 6,5.

Nashriyot hisob tabog‘i 5,5. Adadi 100 nusxa. 31 -buyurtma.

SamDU bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Univyersitet xiyoboni, 15.

